

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI



Filologiya va
tillarni o`qitish
(Fransuz tili)“
YO`NALISHI

O'QUV-
USLUBIY
MAJMUA

**FRANSUZ TILINI O'QITISHNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA ZAMONAVIY YUTUQLARI**

2026

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**FRANSUZ TILINI O‘QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA
ZAMONAVIY YUTUQLARI**

**moduli bo‘yicha
“Filologiya va tillarni o‘qitish (fransuz tili)” yo‘nalishi**

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Toshkent – 2026

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

**Yakubov J.A. - O‘zDJTU, DsC
filologiya fanlari doktori,
professor.
O‘zDJTU, katta oqituvchi S.
Yunusova.**

Taqrizchi:

**O'zbekiston milliy universiteti,
fransuz tili filologiyasi kafedrası
professori, f.f.d. A.Mamatov
O'zDJTU fransuz tili amaliy
fanlar kafedrası dotsenti, fil.fan.
nomzodi P. Nishanov.**

O‘quv-uslubiy majmua O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2026-yil 2-fevraldagidagi 6-sonli bayonnoma)

MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR	5
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI	13
III.	Nazariy materiallar	19
IV.	Amaliy mashg‘ulotlar materiallari	59
V	Glossariy	95
VI.	Keyslar banki	101
VII.	Adabiyotlar ro‘yhati	109



I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Joriy yilning “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb belgilanishi ta’lim-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini aniqlash mezonini talabalarning kasbiy tayyorgarligini majmua holda nazorat qilish va baholash jarayoniga innovatsion yondashuvni taqozo etadi.

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-4732-son, 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari, shuningdek, 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 8 dekabr 2018 yilda qabul qilingan 997-sonli “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2020 yil 15 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va ko‘nik-malarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to‘g‘risida”gi 287-son qarorlarida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini mazmunan yangilash, axborotlar globallashtirish bir davrda mazkur ta’lim tizimida pedagogik faoliyat yuritayotgan pedagogik faoliyat yuritayotgan professor- o‘qituvchilar ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni modernizatsiyalash, maqsadga muvofiq tashkil etishga zamin tayyorlaydigan o‘quv-metodik majmua, elektron darsliklar, nostandart adaptiv testlar banki, o‘quv kurslari bo‘yicha silabus yaratish orqali talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, ta’lim samaradorligiga erishish uchun zarur bo‘lgan metodik bilim, ko‘nikma va malakalarini

rivojlantirish va yangilash, ularni davlat talablari va jahon ta'lim standartlari darajasiga ko'tarish islohotlar davrining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi vazifalarni e'tiborga olgan holda professor-o'qituvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim mazmuniga bog'liq innovatsion ta'lim texnologiyalarini tanlash, mashg'ulotlar ishlanmasi va texnologik xaritalarni loyihalash, ularda belgilangan o'quv maqsadlarni amalda qo'llay olishi, talabalarning yosh, psixologik va ergonomik xususiyatlariga asosan talaba shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni tashkil eta olishi lozim.

Talabalar bilimini baholash fanlar bo'yicha zamon talablariga javob beradigan innovatsion texnologiyalarga asoslangan standart va nostandart o'quv va test topshiriqlarini loyihalashga o'rgatish dasturning asosiy maqsadini belgilab beradi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: "Fransuz tilini o'qitishning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari" modulning maqsadi mutaxassislikning boshqa fanlari bilan integrallashgan holda o'qitiladi va tinglovchilarning chet tili bo'yicha kommunikativ kompetentligini (kognitiv lingvistik, lingvomadaniyatshunoslik(madaniyatlararo muloqot) va pragmlingvistik) rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Modulning vazifalari: Ushbu fanning vazifalari kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik(madaniyatlararo muloqot) va pragmlingvistik, zamonaviy tilshunoslik fanining boshqa fanlar bilan aloqasi haqida nazariy bilimlar berishdan iboratdir.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

"Fransuz tilini o'qitishning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari"

Tinglovchi:

- mutaxassislikning boshqa fanlari bilan integrallashgan holda o'qitiladi va tinglovchilarning chet tili bo'yicha kommunikativ kompetentligini (lingvistik, kognitiv, lingvomadaniyatshunoslik, madaniyatlararo muloqot va pragmlingvistika, ijtimoiy-lingvistik, diskursiv, strategik, ijtimoiy-madaniy) rivojlantiradi;

- til va tafakkur, til va ong, til va madaniyat, til va nutq o'zaro munosabatlarini, insonning tilda namoyon bo'luvchi kognitiv faoliyatini har taraflama o'rganadi;

- zamonaviy lingvistik yo'nalishlarining metodologik printsiplari, asosiy tushunchalarini, borliq, dunyo va voqelikni bilish va uni til orqali ongli idrok etish va kategoriyalash, tilda turli xil ekstralingvistik va madaniy xarakterga ega bilim tuzilmalarining aks etilishi, turli elatlar vakillari muloqoti jarayonida ekstralingvistik omillarning egallaydi va takomillashtiradi;

- zamonaviy lingvistik yo'nalishlari nuqtai nazaridan til –madaniyatlararo muloqot vositasi, bilim olish va saqlash, madaniyatni o'zida aks etish, uni amalda qo'llash va uzatish manbai va nihoyat, tafakkurni va insonning dunyoqarashini shakllantiruvchi vosita sifatida talqin etadi. Til orqali inson borliq va voqelik haqidagi axborotni qabul qiladi, to'playdi, qayta ishlaydi, tartibga soladi va idrok etadi.

- zamonaviy lingvistik yo'nalishlarda alohida ahamiyat kasb etgan lisoniy faoliyatining har bir turi modul sifatida belgilangan (kognitiv lingvistika, qiyosiy lingvomadaniyatshunoslik, lingvopragmatika) modullarni egallash jarayoni integrallashgan holda olib boradi.

- Baholashning samarali yo'llari sifatida standart va nostandart test topshiriqlarini qo'llash **kompetensiyalarini egallashi lozim.**

“Fransuz tilini o'qitishning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari” moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Fransuz tilini o‘qitishning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.
- kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va masofaviy ta’limga asoslangan raqamli texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:
- videoma’ruzada zamonaviy interaktiv texnologiyalar yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda bulutli texnologiyaga asoslangan dasturiy vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Fransuz tilini o‘qitishning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari” moduli mazmuni o‘quv rejadagi barcha kurslar bilan bevosita va bilvosita bog‘liq, ya’ni “Umumiy tilshunoslik”, “Qiyosiy tilshunoslik”, “Chog‘ishtirma tilshunoslik”, “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish” va “Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan.

Ushbu dasturda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini aniqlashda talabalar bilimini baholash metodlaridan foydalanish orqali o‘qitishni takomillashtirish, samaradorlikni orttirishga imkon beradigan test topshiriqlarini maqsadga muvofiq tuzish va amalda qo‘llash foydalanish masalalari qamrab olindi. Mazkur kurs mashg‘ulotlarini hamkorlikda o‘qitish, modulli ta’lim va axborot texnologiyalaridan foydalanib o‘tkazish ko‘zda tutildi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar standart va nostandart testlarni tuzishni o'rgatish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar. Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar kurs davomida dastlab namunaviy darslarda "til o'rganuvchi" roliga qatnashadilar, so'ngra o'qituvchi sifatida tavsiya etilgan darslar va mashqlarni tahlil qilishadi, maxsus testlarni yechishadi, portfolio topshiriqlarini bajarishadi, namunaviy dars o'tib berish orqali o'zlarining til o'qitish ko'nikmalarini rivojlantirishadi. Kurs ishtirokchilaridan kasbiy malakalaridan kelib chiqqan holda chet tillarni o'qitishdagi dolzarb masalalarni belgilab olishlari shuningdek, guruh ahzolari bilan darsda hamkor holda ish yuritishlari, o'zaro fikr almashishlari, interfaol usullarining samarali shakllarini tahlil sohasiga tadbiq etishga erishishlari, mavjud ish tajribalarini hamkasblari bilan o'rtoqlashishlari, xususan, ilg'or tajribalarni seminar-treninglar, amaliy kurslar, didaktik materiallar, metodik qo'llanmalar ko'rinishida ommalashtirish va ta'lim tizimida qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish ustida ish olib boradilar.

MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg'
1.	Kognitiv tilshunoslik	2	2	4
2.	Lingvomadaniyatshunoslik	2	2	2
3.	Madaniyatlararo muloqot	2	2	2
4.	Pragmalingvistika	2	2	2
	Jami:	18	8	10

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: KOGNITIV TILSHUNOSLIK (2 soat)

Kognitiv lingvistika faniga kirish. Kontseptuallashtirish va kategoriyalashtirish masalalari. Kontsept – kognitiv lingvistikaning asosiy tushunchasi sifatida. Kognitiv metafora nazariyasi. Kontseptual tahlil metodlari

2-MAVZU: LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK (2 soat)

Lingvomadaniyatshunoslik fan sifatida va uning o'rganish ob'ekti va asosiy tushunchalari . Til – madaniyat – elat masalasining tilshunoslikdagi muammosi. Lingvomadaniyatshunoslik fanining yo'nalishlari. Qiyosiy lingvomadaniyatshunoslik fan sifatida

3-MAVZU. MADANIYATLARARO MULOQOT (2 soat)

Lisoniy va milliy dunyo tasvirlari tushunchalari. Lingvokulturema – lingvomadaniyatshunoslikning asosiy tushunchasi sifatida. Milliy-madaniy xususiyatga ega til birliklarining qiyosiy tadqiqi. Lingvomadaniy tadqiq metodlari.

4-MAVZU. PRAGMALINGVISTIKA (2 soat)

Lingvopragmatika faniga kirish Nutqiy akt nazariyasi lingvopragmatikaning asosi sifatida. Xushmuomalalik tamoyili kommunikativ-pragmatik kategoriya sifatida.

Diskurs pragmatikasi. Lisoniy birliklarining pragmatikasi Bo'lajak chet tili o'qituvchisi ritorik nutqining lingvopragmatik jihati.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-2-AMALIY: KOGNITIV TILSHUNOSLIK (2 soat)

Kognitiv lingvistika faniga kirish. Kontseptuallashtirish va kategoriyalashtirish masalalari. Kontsept – kognitiv lingvistikaning asosiy tushunchasi sifatida. Kognitiv metafora nazariyasi. Kontseptual tahlil metodlari

3-AMALIY: LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK (2 soat)

Lingvomadaniyatshunoslik fan sifatida va uning o'rganish ob'ekti va asosiy tushunchalari . Til – madaniyat – elat masalasining tilshunoslikdagi muammosi. Lingvomadaniyatshunoslik fanining yo'nalishlari. Qiyosiy lingvomadaniyatshunoslik fan sifatida

4-AMALIY. MADANIYATLARARO MULOQOT (2 soat)

Lisoniy va milliy dunyo tasvirlari tushunchalari. Lingvokulturema – lingvomadaniyatshunoslikning asosiy tushunchasi sifatida. Milliy-madaniy xususiyatga ega til birliklarining qiyosiy tadqiqi. Lingvomadaniy tadqiq metodlari.

5-AMALIY. PRAGMALINGVISTIKA (2 soat)

Lingvopragmatika faniga kirish Nutqiy akt nazariyasi lingvopragmatikaning asosi sifatida. Xushmuomalalik tamoyili kommunikativ-pragmatik kategoriya sifatida.

Diskurs pragmatikasi. Lisoniy birliklarining pragmatikasi Bo'lajak chet tili o'qituvchisi ritorik nutqining lingvopragmatik jihati.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach ekspert berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

“Tasniflash” metodi

Ushbu metodning maqsadi tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzular doirasida tematik turkumlar, xususan bevosita til bilan bog‘liq (til+til) va soha hamda til bilan bog‘liq (soha+til) kabi ikki yirik turkumlar tarkibidagi kichik tematik guruhlarini ajratib olishdan iborat. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilarning assotsiativ farazlari aniqlanib olinadi;
- tinglovchilarga mavzularga yoki bobga tegishli bo‘lgan kalit so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur kali so‘zlar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach ekspert berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

“Moduldagi tayanch tushunchalar taxlili”va “Tasniflash” metodi

Kalit soz`lar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma`noni anglatadi?	Qo`shimcha ma`lumot
Amaliy tilshunoslik	Tilning amaliyotda qo`llanilishi	
Kasbiy faoliyat	Olingan nazariy bilimlarni kasb doirasida qo`llash	
Kasbiy kompetensiya	Olingan nazariy bilimlarni kasb doirasida faol qo`llash	
Pragmatik yondashuv	Foyda va natijaga erishishga qaratilgan yondashuv	

KOGNITIV TILSHUNOSLIK TAHLIL METODLARI FREYM

“Mumkinlik” modal freymning misollarda ifodalanishining o'ziga xos semantik belgilari va ularning berilish yo'llari.

Dastlab termin “freym”ni (ingliz tilidan Frame – ramka-doira) Amerikalik olim Marvin Minskiy XX asrning 70 yillarida bilimlar strukturasi va saxnalarda semantik maydonni qabul qilish uchun tilshunoslikka olib kirdi.

Freymlar nazariyasi ijtimoiy kundalik hayotni tahlil qilish vositasidir. Ular intellektual bilimlarni badiiy tasavvur qilish imkoniyatini tug'diradi.

Freym – inglizcha (frame) bo'lib, “karkas” yoki “ramka” degan ma'nolarni bildiradi. Bu atamani birinchi bo'lib Marvin Minskiy XX asrning 70-yillarida fanga olib kirgan.

U bilimlarni namoyon etishning keng tarqalgan shakllaridan biri hisoblanadi.

U bilimlarni olam hodisalari bilan bog'lab talqin qilish imkonini beradi.

Freym – obrazning mavhum modeli. Uning bir necha turlari mavjud. Bular: 1) namuna freymlar; 2) nusxa freymlar; 3) struktura freymlar; 4) syenariy freymlar; 5) rol freymlar; 6) holat freymlar va hokazo. Bular ko'proq tahlil tizimida har xil ahamiyatda qo'llanadi.

Freym aniq qotib qolgan bilimlarni qamrab oladi. Bu ilmiy tilda “prezumptsiya” deb nomlanadi.

Freym “slot” deb nomlanadigan alohida nomga ega bo'lgan birliklardan tashkil topadi. Ular bir strukturali bo'ladi va o'zaro freymlar bo'lib birlashadi.

Freymlar yuqoridan pastga qarab boradi. To'ldirilgan freymlar “protofreymlar”, to'ldirilgan freymlar esa “ekzofreymlar” deyiladi. Protofreym ekzofreym uchun o'rab sifatida muhim hisoblanadi.

U ichki talqinni amalga oshirishga undaydi.

Hozirgi paytda ko'pchilik olimlar bilimlar strukturasi va til sistemasida ularning birlashish printsiplarini o'rganishda freym tushunchasi o'ta foydali ekanligini ma'qullamoqdalar. Shuni hisobga olmoqlik lozimki, muammolarning murakkabligi va umumiyligi tilda bilimlar xususiyatini ko'rsatish bilan bog'likligi muhim o'rin tutadi. Biz freym tushunchasiga e'tiborni qaratar ekanmiz, inson bilimini sxematik yo'llar orqali bilib olish imkoniyatini ko'rib chiqamiz.

Kognitiv tilshunoslikda freym tushunchasi

I. «Frame» (freym) – inglizcha so'zdan olingan bo'lib, «karkas» yoki «ramka» degan ma'nolarni anglatadi. Bu atamani birinchi bo'lib fanga, 1974 yilda, sun'iy intellekt muammolari hamda kompyuterda bilimlarni namoyish etish usullarini tadqiq qilgan amerikalik olim Marvin Minskiy olib kirdi. Ushbu atama sun'iy intellektni modelashtirish jarayonini tasvirlashda foydalanishni davom ettirib, u o'z o'rnini kognitiv tilshunoslikda topdi desa, mubolag'a bo'lmaydi.

II. Ch.Fillmor «freym» tajribani andozaga soluvchi kognitiv tuzilma, bo'lib, lisoniy birliklar vositasida shakllanishini aytadi: «Freym – kontseptning negizini tashkil qiladi va ayrim freymlar tug'ma (tabiiy) hisoblanadi.» N.V.Volosuxina kontsept va freym orasidagi o'zaro munosabatni tahlil qilib, freym deganda stereotip situatsiya haqidagi bilimlarni hosil qiluvchi kognitiv modelni tushunadi va freymni – kontseptning skleti deb izohlaydi. Sh.Safarovning o'zbek tilshunosligida «freym» atamasi haqidagi nazariy qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha: «Har bir shaxs ongida «freymlar to'ri to'plami» mavjudki, ushbu to'plam bilim va idrok faoliyatini ma'lum ko'rinishdagi «andoza»lar asosida amalga oshishini ta'minlaydi.

III. Freymning tabiati va uning asosiy belgilari haqida bildirilgan jahon va milliy tilshunoslikdagi fikr-mulohazalarni o'rganish va tahlil qilish natijasida shuni aytish mumkinki, turli tadqiqotlarda mazkur tushunchaga berilgan ta'riflar bir-birini inkor etmaydi, aksincha, biri ikkinchisini to'ldiradi va bir-birini taqozo etadi.

IV. Demak, kontsept bilan freym orasida yetarli darajada farq mavjud: kontsept bilimlar bazasini ifodalashda struktura, geshtalt va kichik (bo'linmaydigan) birlikda turli lisoniy sath ma'no birligi sifatida bo'lishi mumkin. Freym – doim strukturaga va semantik bo'linish xususiyatiga ega bo'ladi. Freym nazariyasi ostida shunday gipoteza (taxmin) yotadiki, unda olam haqida bilimlar katakchatuzilmalardan iborat, ya'ni freymlar aniq stsensariylar bilan belgilangan stereotip situatsiyalar to'plamidan tashkil topgan. Biroq, freymni leksik kontseptning turi sifatida qarab chiqish uchun avvalo kognitologiya va kognitiv lingvistika kabi tushunchalar mohiyati xususida to'xtalishga to'g'ri keladi.

V. «Ertak freymi»ida asosiy tushuncha (obraz) va uning atrofidagi yordamchi obrazlar bo'ladi. U asosiy ob'ekt (obraz yoki motiv) tafsilotlari haqidagi bilimlarni qamrab oladi. Shuningdek, ertakdagi ob'ekt va sub'ektlar munosabati haqidagi bilimlar ham

freymdir. Shuning uchun u ijtimoiy o'zaro harakat (interaktsiya haqidagi bilimlar) majmuini o'zida namoyon etadi.

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlr bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Til shakllari					
Adabiy til		Badiiy til		Xalq jonli tili	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda seminar mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Fikr: Globalizatsiya boshqa sohalardaki kabi tilshunoslikda ham yangi kasblarni paydo bo‘lishiga olib keladi

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

II. NAZARIY MATERIALLAR

NAZARIY MATERIALLAR

KOGNITIV TILSHUNOSLIK

- 1. Kognitiv lingvistikaning kelib chikishi va yunalishlari**
- 2. Kognitsiya termining lisoniy semantik xususiyatlari. Kognitivizm umumilmiy yo'nalish**
- 3. Shaxsning kognitiv stili**
- 4. Olam va til kognitsiyasi**
- 5. Lingvistik va ekstralinivistik kognitsiyalarni anglash**
- 6. Kontsept va uning turlari.**

Kognitiv tilshunoslik ham insonning bilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi fanlar tarkibiga kiradi. Kognitiv tilshunoslik termining mazmuni inglizcha “cognitive-” bilishga oid” so'zi bilan bog'liq.(Qiyoslang: “cognize – bilmoq, anglamoq, tushunmoq,” “cognition-bilish faoliyati »). Malumki, kognitsiya olamni bilishda inson bilimlarining ongda paydo bo'lish va boyib borish jarayonidir. Kognitsiya – bilimlarni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va ulardan foydalanish jarayonlari tizimidir.

Bilish jarayonining ruhiyatda kechishi masalasi bilan maxsus shug'ullangan psixologlar (J. Bruner, L.Vekker, B.Lomov) voqelikning ongda aks etishi turli xususiyatlarga ega ekanligini qayd qilishadi. Jumladan, muqimlik (idrok etilayotgan predmetning doimiy, muqim bo'lishi), predmetlik(ob'ektning alohida mavjud bo'lishi), butunlik(predmet qismlari va bo'laklarining yangi bir darajada birikishi), umumiylik (predmetning muhim xususiyatlarini farqlash) bular qatoriga kiradi. So'zsiz, ushbu xususiyatlarning barchasini ham bilish jarayonida o'z o'rni bor, ularning har biri bilishning ikkala bosqichda(obraz yaratish va tushuncha hosil bo'lishi) o'zicha namoyon bo'ladi. Kontseptning hosil bo'lishi va uning lisoniy voqealanishid esa umumiylik(aniqrog'i, umumlashtirish) xususiyati alohida rol o'ynaydi.

Kognitiv tilshunoslik majmuaviy tadqiqot yo'nalishi bo'lib, u tilshunoslik va psixologiyadan tashqari, sun'iy intellekt nazariyasi, psixolingvistika, neyrolingvistika kabi fan sohalariga oid ilmiy yondashuvlarni ham umumlashtiradi.

Kognitiv lingvistikaning vazifasi: 1) insondagi bilimlarning paydo bulishida tilning rolini aniklash, 2) kontseptual sistema bilan til sistemasi urtasidagi munosibatni aniklash, 3) bilimni kontseptuallashtirish va kategoriyalashtirish jarayonlarini tushinish, 4) olamning lisoniy va kognitiv (kontseptual) tasvirlari bilan boglik bulgan masalalarni yechish.

Olamdagi narsalarga nom berilishi bu narsalarning tilda aks etishi, obrazli qilib aytganda, o'sha narsalarning lisoniy tasviridir (suratidir). Dunyodagi narsa va hodisalarning til birliklari ma'nolarida mana shunday aks ettirilishini tilshunoslikda “olamning lisoniy tasviri” (языковaya kartina mira) deb ataladi. Dunyodagi narsa va voqealarni konkret tilda aks etishini esa, “olamning milliy tildagi tasviri” (natsionalnaya kartina mira) deb ataladi.

Kognitiv lingvistikaning nazariy asosida “tafakkur tilsiz bo'ladi, ammo muloqot paytida u til orqali yuzaga chiqadi, ya'ni ifodalanadi” degan tezis yotadi. Xuddi shunday fikr bir qancha yillar avval rus olimlari N.I. Jinkin (1982), A.R. Luriya (1998) tomonidan oldinga surilgan edi.

Kognitiv lingvistikaning ijobiy tomonlaridan biri shundaki, u lug'atlarda berilgan so'z ma'nolari juda sayoz ekanligini, ya'ni lug'at tuzuvchilarning lug'oviy ma'no aks ettirgan predmet yoki xodisalarning belgilarini xaddan tashqari qisqartirib tashlashlarini adolatli tankid qiladi va yangi tipdagi lug'atlarni kanday tuzish kerakligi haqida qiziqarli fikrlarni oldinga suradi.

Kognitiv lingvistika to'g'risida gapirar ekanmiz, uning tarixi to'g'risida qisqacha to'xtashga to'g'ri keladi.

“Kognitiv lingvistika” termini birinchi marotaba 1975 yil amerikalik olimlar J. Lakoff va G. Tomsonlarning “Kognitiv grammatikani tanishtiramiz” nomli maqolasida tilga olingan, keyinchalik R. Lengakerning 1991 yilda AKShda chiqqan “Kognitiv grammatika asoslari” kitobida batafsilrok talqin qilingan. L. Talmi, I. Fillmor va U. Cheyff kabi amerikalik olimlar xam kognitiv lingvistikaning ayrim masalalarini yoritdilar.

Kognitiv lingvistika Yevropaga oldingi asrning 90–yillarida kirib keldi. Yevropadagi bu sohadagi birinchi ishlar X.Y. Shmidtning “Kognitiv lingvistikaga kirish (1996)”, B. Xaynening “Grammatikaning kognitiv asoslari (1997)” asarlaridir.

Kognitiv lingvistikani sobiq Sovet Ittifoqiga tarqalishida V.I. Gerasimovning “Xozirgi zamon xorijiy grammatik nazariyalari”(1985) to'plamida bosilgan “Kognitiv grammatikaning paydo bo'lishi” deb nomlangan maqolasi ma'lum rol o'ynaydi. Rossiyada kognitiv lingvistikaning rivojlanishiga Ye.S. Kubryakova, Yu.S. Stepanov, I.A. Sternin, N.D. Arutyunova, A. Vejbitskaya, A. Chenki, S.G. Vorkachev, V.I. Karasik, A.P. Babushkin, Ye.V. Raxilina kabi olimlar salmoqli xissa qo'shdilar.

Kognitiv lingvistikaning eng asosiy tushunchasi “kontsept” tushunchasi bulib, u tafakkur birligi xisoblanadi. Kontseptlarsiz tafakkur bo'lmaydi. Kognitiv lingvistikada kontseptni xamma tilshunoslar tan oladilar, ammo ularning u haqidagi fikrlari xar hil. Masalan:

Kognitiv lingvistikani etnosga, ya'ni millatga tegishli bo'lgan kontseptlar qiziqtiradi.

Bugungi kunda kontseptning ko'p qirrali ekanligi xam ko'pchilik tomonidan tan olinadi. Bu masalada V.A. Maslova bunday deydi: Kontsept – mnogomernoye obrazovaniye, vklyuchayushcheye v sebya ne to'лько ponyatiyno-definitsonnyeye, no i konnotativnyeye, obraznyeye, otsenochnyeye, assotsiativnyeye xarakteristiki, kotoryeye doljny byt' uchteny pri opisanii kontsepta (V.A. Maslova 2002, 59).

Kognitiv lingvistikada kognitiv belgilar va so'z ma'nosi ichidagi semalar farqlanadi. Sema bu so'z ma'nosining qismi bo'lib, u predmet yoki hodisaning biror belgisini aks ettiradi. Kontseptga nisbatan u kognitiv belgi deb yuritiladi.

Olamning inson ongida kontseptlarda aks etishini kognitiv lingvistikada “olamning kognitiv tasviri” (kognitivnaya kartina mira) yoki “olamning kontseptual tasviri” (kontseptual'naya kartina mira) deb ataladi.

Kontseptlar til birliklarining semantikasi yordamida tashqariga chiqadi. Bu birliklar – so'zlar, frazeologik birliklar, gaplar, paremiyalar nutq klishe'lari, fol'klor matnlari. Bularni ayrim tilshunoslar “kontseptning nominativ maydoni” deb atashadi.

Kontseptlarni tilda ifodalanishi haqida ikki hil fikr bor. A.P. Babushkin va S.G. Vorkachevlarga ko'ra, kontsept harqachon so'zlar orqali ifodalanadi (qarang: Z.D. Popova, I.A. Sternin 2006, 55) boshqa fikrga ko'ra kontseptni so'z orqali ifodalanishi shart emas (Z.D. Popova, I.A. Sternin 2006, 55).

Kontseptlarning soni hamma tillarda bir hil emas. Ularning bir kismi ayrim tillarda yo'q. Natijada lakunalar paydo bo'ladi. Bunday lakunalar tillar o'rtasidagi milliy-madaniy farqlarni yaqqol ko'rsatadi. Milliy-madaniy farqlar kontsept tarkibidagi kognitiv belgilar yoki ma'no tarkibidagi semalar farqlarida ham ko'rinadi. Masalan, rus tilidagi "buterbrod" kontsepti "kolbasali", "pishlokli", "sariyog'li", "katletli" kabi kognitiv belgilarga ega, nemis tilidagi "Butterbrot" esa, fakat "sariyog'li" kognitiv belgisiga ega, chunki nemislar buterbrodda faqat sariyog' ishlatadilar.

Kontsept bilan so'z ma'nosini aysbergga o'xshatish mumkin. Agar kontsept aysberg bo'lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi so'z ma'nosidir.

Kontsept qismlari til birliklari bo'ylab sochilib ketgan, shuning uchun kontseptni aniqlash uchun kontseptning nominativ maydoni taxlil qilish kerak.

Kontseptlarning tartiblashtirilgan yigindisini "kontseptosfera" deb ataladi. Har bir millat o'zining kontseptosferasiga ega.

Kontseptning mazmuni bilan uning tartkibini adashtirmaslik kerak. Kontseptning mazmunini kognitiv belgilar yig'indisi hosil qiladi. Kognitiv belgilar aks ettirilayotgan predmet yoki xodisaning alohida belgilaridir. Kontsept mazmuni maydoniy printsip asosida tartibga solingan. Unda yadro, yaqin periferiya va o'zok periferiyalar bor. Kognitiv belgilarning u yoki bu zonaga tushishi o'sha belgilarning ongdagi yorqinlik darajasi bilan belgilanadi.

Kontseptning tarkibi haqidagi fikrlar turlicha. Masalan, Yu.S.Stepanov kontsept tarkibida ko'p ishlatiladigan, xammaga ma'lum bo'lgan narsani, ayrim kishilarga ma'lum bo'lgan narsani va tarixiy etimologik axborotni borligini aytadi. Masalan, "8 Mart" kontseptida xammaga ma'lum bulgan "ayollar kuni" kognitiv belgi, ayrim kishilarga ma'lum bo'lgan "ayollar huquqini ximoya qilish kuni" kognitiv belgi va "Klara Setkin tomonidan taklif qilingan" kognitiv belgi-tarixiy axborot bor (Yu.S.Stepanov 1997).

S.G. Vorkachev fikriga ko'ra, kontsept tarkibida tushuncha, obraz va etimologik – assotsiativ belgilar bor (S.G. Vorkachev 2004, 7).

V.I. Karasikga ko'ra, kontsept tarkibida obraz, tushuncha va baxolash kognitiv belgilari bor (V.I. Karasik 2004, 118).

Kontsept tarkibi bo'yicha eng oxirgi yangi fikr Z.D. Popova, I.A. Sterninlar fikridir. Ularning fikriga ko'ra, kontsept tarkibiga quyidagilar kiradi:

- 1) obraz;
- 2) informatsion mazmun (informatsionnoye sodernaniye);
- 3) talqin qilish maydoni (interpretatsionnoye pole):
 - a) baxolash zonasi (otsenochneya zona),
 - b) entsiklopedik zona,
 - v) manfaat zonasi (utilitarnaya zona),
 - g) boshqaruv zonasi (regulyativnaya zona),
 - d) ijtimoiy–madaniy zona,
 - ye) paremiologik zona.

Kontsept til orqali ifodalanganligi uchun uni uning nominativ maydonini tahlil qilish orqali topiladi va bu quyidagicha amalga oshiriladi:

- 1) kalit–so'z aniqlanadi (bu so'z kontseptni tildagi eng to'la ifodalovchi formasidir);
- 2) nominativ maydonning yadrosi aniqlanadi (kalid–so'zning sinonimlari sinonimik lug'atlardan qidirib topiladi);
- 3) nominativ maydonning periferiyalari aniqlanadi (bu badiiy va publitsistik adabiyotlar matnlarini, kalid–so'zning derivativ tarkibini, paremiyalarni, qiyoslash ifodalovchi turg'un birikmalarni, frazeologik birliklarni, kalid–so'z bilan assotsiativ bog'langan so'zlarni, folklor matnlarini tahlil qilish yo'li bilan aniqlanadi).

Kontsept kognitiv tilshunoslikning o'rganish ob'ekti hisoblanib, u siz kognitiv tilshunoslik faoliyat ko'rsata olmaydi. Kontsept ham tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma'no umumlashmasi yotadi, Kontseptning shakllanishi individual obraz tug'ilishidan boshlanib, lisoniy birlikning paydo bo'lishi bilan tugaydi.

“Kontsept mental(mantiqiy) tuzilma bo'lib, u turli tarkibdagi va ko'rinishidagi bilimlar kvanti yoki umumlashmasidir(Kubrikova i dr. 1996, 90). Kontseptlar inson ongida shakllanadigan turli kategoriyalarni asosini tashkil qiladi, ular uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi.

TILGA KOGNITIV YoNDASHUVNING MOHIYATI NIMADA?

Yaqin-yaqinlargacha tilshunoslik fani u yoki bu til tizimini, matn «qurilishini, ichki tilshunoslik nuqtai nazardan, ya'ni uning substantsional xususiyatlarini o'rganib, tahlil va tadqiqqilib kelgan bo'lsa, endi u bilish, tushunish, idrok etish, anglash, tahlil qilish faoliyatlariga oid tushuncha va kategoriyalar bilan o'z doirasini yanada kengaytirdi. Bu holat esa lingvistikaning falsafa, logika, psixologiya, antropologiya, kibernetika, gnoseologiya (bilish nazariyasi) kabi kognitiv fan sohalari bilan hamkorlik qilish ehtiyojini tug'dirdi. Bu hamkorlik natijasida tilshunoslik inson tafakkur faoliyati muammolari bilan shug'ullanuvchi kognitologiya fani doirasiga kiritildi hamda tilhaqidagi fan kognitiv lingvistika deb atalmish yangi soha bilan boyitildi.

Kognitiv lingvistika 1970 yillarning ikkinchi yarmida shakllangan bo'lib, bu yo'nalish vujudga kelgan AQShda uni ko'pincha "kognitiv grammatika", Rossiyada - "kognitiv semantika", deb atashadi. Uning asoschilari psixolog Dj. Miller va lingvist N. Xomskiylar hisoblanadi. Umuman, kognitologiyani vujudga kelishi hozirgi zamon fanida eng yirik voqeadir. Kognitiv fanining asosiy vazifasi - bilish va aql kognitsiyasini, uning faoliyat ko'rsatishini barcha aspektlarda tadqiqqilishdir. N.Xomskiyning lingvistikaning vazifasi - bu insonning kognitiv qobiliyatlarini o'rganishdir, degan Uoyasi uning shogirdlari Dj. Lakoff, R. Langaker va R. Djekendoflar tomonidan rivojlantirildi.

Kognitiv fan kognitsiya (bilish) bilan shug'ullansa, kognitiv tilshunoslik kognitsiyaning, ya'ni bilishning tilda aks etishini, verballashuvini tadqiqqiladi. Kognitiv fan inson idroki va tafakkuridek murakkab fenomenhaqidagi to'liq va adekvat tasavvurlarga ega bo'lish uchun turli xil soha olimlarining (ruhshunoslar, mantiqshunoslar, faylasuflar, tilshunoslar, matematiklar, kibernetiklar, antropologlar, dasturlovchilar va boshqalar) jamlangan yahlit fikrlarini o'rganadi. Kognitiv tilshunoslik ana shu jamlangan fikrlarning bevosita til bilan bog'liqligini, kognitiv va lisoniy strukturalarning munosabatini o'rganadi va tadqiqqiladi. Shu boisdan ham kognitiv tilshunoslik, insonning bilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi fanlar tarkibiga kiradi.

Kognitivlik olam kontseptual manzarasining shakllanishi asosida voqelik to'g'risidagi bilimlarni umumlashtirilgan holda yetkazish va fikrlash jarayonining ehtiyojlarini ta'minlashda namoyon bo'ladi. Tilga bo'lgan kognitiv yondashuv - bu til shaklining oxir-okibat inson ongi, fikri, bilish strukturalarining aks ettirilishidir. Kognitivlik o'z

tuzilishiga ko'ra insonning bilish faoliyatiga tayangan barcha tipdagi bilimlarning tizimlashishini ifodalaydi.

Kognitiv tushunchasi bilish natijasi sifatida voqelikni tuliq aks ettiradi va bilish natijasini qayd qilish uchun xizmat qiladi. Til birliklari esa muloqot jarayonida axborotni yetkazish vositasi, fikrlash jarayonida esa asosiy qurol hisoblanadi. O'z asosida ular turli yo'naltirilganlikka egadirlar, ammo til sohiblarining bir xil bo'lmagan bilimlari va tajribasiga qaramasdan, ular leksikonidagi ma'nolar mos kelishi xam mumkin. Garchi kognitiv tushunchalarning o'zlari ayrim so'zlashuvchilarning ongiga mos kelmasa-da, ma'nolar, tushunchalar to'g'risidagi alohida tipdagi xabarlar sifatida to'g'ri keladi.

Ye.D. Raxilining ta'kidlashicha, insonning til qobiliyatlari - bu uning kognitiv qobiliyatlarining bir qismidir. Kognitiv fan inson miyasi va uning ishining o'rganilishi bilan bog'lik bo'lgan barcha fanlarni quyidagi bir necha yo'nalishlar bo'yicha birlashtirdi, bular: mantiqiy, neyrofiziologik, psixologik yo'nalishlardir. Z.D.Popovning hisoblashicha, kognitiv lingvistika - bu til fikrlashning murakkab munosabatlarini o'rganishning yangi bosqichidir. Kognitiv lingvistika bu - til to'g'risidagi fanning inson psixikasi to'g'risidagi fan bilan o'zaro munosabatlaridir.

Ye.S.Kubryakovning ta'rificha, kognitologiya - bilim va bilish dunyosini idrok qilish natijalari va insonlarning predmetli-bilish faoliyati to'g'risidagi, ular qandaydir tarzda bizning ongimizda mustahkamlangan va mental yoki kognitiv jarayonlarning negizini tashkil qilgan, anglangan va ma'lumotlarning ma'lum tizimiga keltirilgan ko'rinishdagi fandır [3]. "Kognitiv yo'nalish o'zining ilk rivojlanish bosqichida semantikaga nisbatan qoniqmaslikning natijasidir,"- deb yozadi Chenki.

XX asr lingvistikasining eng muhim natijalaridan biri semantikaning tashkil topishi bo'ldi. Tilshunoslarning semantik muammolarga va bu fenomenning tadqiqiga qaratilgan turli yo'nalishdagi tadqiqotlari lingvistikada haqiqiy inqilobni keltirib chiqardi. Ularda integratsiyaviy tendentsiyalarning ustuvorligi qayd etilgan tilshunoslikning yangi qirralari ma'lum bo'ldi: bu ekspansionizm, ya'ni, boshqa fanlarga chiqish, antropotsentrizm - uning tashuvchisini aniqlash maqsadida tilni o'rganish; fundamentalizm - tilning barcha funktsiyalarini ta'riflash va eksplantatorlik - til hodisalarini tushuntirib berishga intilish.

Rey Djekendof o'zining "Semantika va kognitiv faoliyat" nomli asarida (1983) semantikaning insonning boshqa fanlar, eng avvalo, psixologiya bilan kognitiv qobiliyatlarini ta'riflovchi aloqalarini asoslaydi. Nutqni idrok etishda inson, umuman, idrok qilishidagi huddi shu mexanizmlardan foydalanishi ta'kidlanadi.

Ye.S.Kubryakovaning ta'kidlashicha, kognitiv fani turli fundamental fanlar va axborot nazariyasi, kompyuter fanlari, neyrofanlar kabi yangi rivojlanayotgan fanlar o'rtasida aloqalarni o'rganishga urinib ko'rdi. Boshqa tomondan, umumiy qoidalar va tamoyillar, semantik qoidalariga tayanadi. "Lingvistika ichida kognitiv yondashuv tabiiy tarzda, u leksemalarning, ularning qismlari va birikmalarning, konstruktsiyalarning, gaplarning asosiy mazmun-mohiyatini belgilaydigan, semantikaning ustunligini nazarda tutadi".

Kognitiv semantika an'anaviy semantikadan muammolarning qo'yilishi va ularni yechishning metodlari bilan farqlanadi. Til va bilimlar nisbatining muammosi kognitiv semantika masalalarini, tilga bilish vositasi tarzida tegishli bo'lgan hamda til va fikrlash o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning muammosi tilshunoslikning an'anaviy mavzularini yangicha anglab olish imkoniyatini beruvchi, tadqiqotlarni birinchi qatorga olib chiqadi.

Kognitiv semantika, mental strukturalarning rang-barang turlarini tadqiq qilishni hamda bu strukturalarning inson ongiga bo'lgan munosabatlarining turli uslublarini o'z tarkibiga oladigan, tilning kontseptual tahlilini o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. R.O.Yakobson ta'kidlaganidek, "Semantika - bu lingvistikaning o'zagidir".

Kognitiv lingvistikani "haddan tashqari chuqur semantika", deb belgilash va semantik g'oyalarning mutlaqo tabiiy rivojlanishi - til semantikasi toifalari orqasida ba'zi bir yanada umumiyroq tushunchaviy toifalarni ko'rishga urinish, deb qarash mumkin. Lingvistik semantikadan kognitiv grammatikaga bo'lgan yo'l amerikalik lingvistlar L.Talmi va R. Langakerlarning ishlarida bayon etilgan.

Til hodisalariga bo'lgan kognitiv yondashuvning rivojlanishi uning, ongimiz va intellektimizning kontseptual va kognitiv strukturalari to'g'risidagi ma'lumotlar manbasi sifatida tushunilishiga imkon berdi. Til miyamizdagi dunyomiz to'g'risidagi bilimlarning, har xil strukturalarning mavjud bo'lishining eng yaxshi dalili sifatida ifodalanadi.

Kognitiv yondashuv tadqiq ob'ektini yiriklashtirish va leksik ma'nodagi komponentlarni taqdim qilish uslublarini kengaytirishga imkon yaratadi. Kognitiv lingvistikada barcha til jarayonlari insonning bilish faoliyati, dunyoning toifalanishi va kontseptualizatsiyasi bilan bog'liqdir. Kontseptualizatsiya-bu insonga kelib tushadigan axborotning anglanish jarayoni, inson psixikasidagi kontseptlar va barcha kontseptual tizimning hosil bo'lishiga olib keluvchi predmetlar va xodisalarning fikran namoyon bo'lishidir.

Kontseptualizatsiya jarayoni kategorizatsiya jarayoni bilan uzviy bog'liqdir. Bu jarayonlar, o'zaro uzviy aloqada bo'lib, ma'lum toifalar bo'yicha voqelikning bilish natijalarini tartibga soladi. Agarda kontseptualizatsiya jarayoni kelib tushayotgan axborotning tushunchaviy tasniflanishida mujassam bo'lsa, kategorizatsiya esa, u yoki bu munosabatda o'xshashlikni namoyon etish yoki teng darajali sifatda tavsiflanadigan tarzdgagi birliklarning yanada yirik toifalariga birlashtirishga qaratilgan buladi. Ular oxirgi natija buyicha farqlandilar.

V.N.Teliyaning fikricha, kontseptgacha ontologik jihatdan tipli obrazni yaratuvchi va "prototip"ni shakllantiruvchi kategorizatsiya turadi. Z.D.Popovanning ta'kidlashicha, kognitiv lingvistikaning barcha problematikasi uning kontsept, kontseptualizatsiya, kategorizatsiya, kontseptosfera yoki olam tasviri kabi asosiy tushunchalardan iborat [12]. Kognitiv-lingvistikaning asosiy birligi bo'lib, unga berkitilgan narsalar va ob'ektlar nomlarini leksik tizimda izohlab beruvchi kontsepthisoblanadi. Dastlab, "kontsept", "tushuncha" so'zi sifatida idrok etildi. Asta-sekinlik bilan "kontsept" va "tushuncha" atamalari uzaro farqlana boshladi.

Kontseptlar, turli umumlashtirilgan nomlar bilan qadim zamonlardan buyon mutafakkirlarning jiddiy e'tiborini o'ziga jalb etib keldi. Platonning g'oyalar to'g'risidagi ta'limot kontsept ("kontseptning kontsepti") to'g'risidagi tushunchaning timsoli bo'ldi. Umuman olgandakontsept atamasidan to'la huquqli foydalanish XX asrning 80-yillaridan boshlanadi. Hozirgi zamon lingvistikasida kontsept tushunchasiga ko'p olimlar murojaat qiladilar. N.Yu.Shvedova kontsept so'zini, "inson faoliyatining mental, ma'naviy yoki hayotiy-muhim moddiy sohasiga mansub bo'lgan, xalqning tajribasiga, uning an'analari va tarixiga tayanadigan, sotsial va sub'ektiv jihatdan anglab olinadigan va unga yaqin

turgan yoki unga qarama-qarshi bo'lgan boshqa tushunchalar bilan nisbatga kiradigan, bu zinalar orqali yashash doirasi, hayotiy tajriba va anglash va baholash potentsiali"- so'z ma'nosidan (yoki bir necha eng yaqin joylashgan ma'nolardan) keyin turgan tushuncha sifatida belgilaydi.

Kontseptning mavjud bo'lgan ta'riflarida uning mazmuni va turli aspektlari aks ettiriladi. Ushbu tushuncha Ye. S. Kubryakova tomonidan "xotiraning, mental leksikonning, kontseptual tizimning va miya tilining, inson psixikasida aks ettirilgan dunyoning barcha manzarasining operativ, mazmundorligi birligi sifatida tavsiflanadi. Yu. S. Stepanov uni inson mental dunyosidagi madaniyatning asosiy halqasi sifatida belgilaydi: "Kontsept - bu inson ongidagi madaniyatning quyulgan hosilasidir, madaniyat qanday ko'rinishda insonning mental dunyosidan o'rin olishidir. A. Vejbitskaya esa, kontsept - ideal ob'ekt, ya'ni, bizning ongimizda mavjud bo'lgan ob'ekt, deb hisoblaydi. Demak, aytish mumkinki, kontsept so'zining semantik strukturasida turli aspektdagi alomatlarning o'zaro bog'liligini aniqlashga imkon beruvchi, voqea, hodisalar to'g'risidagi bilimlar majmuidir. Z. D. Popova va I. A. Sterninlar fikricha, kontsept - bu, fikrlash faoliyati jarayonida, o'zining turli alomatlari va qatlamlarini aktualizatsiya qilib, turli tomonlari bilan aylanadigan, fikrlashning kompleks birligidir. Kontseptning bu alomatlari yoki qatlamlari tilda nutqiy belgisiga ham ega bo'lmasligi yoki xuddi shu bir so'zning o'zi turli kommunikativ sharoitlarda kontseptning har xil alomatlarini namoyon qilishi mumkin. So'z bir necha asosiy kontseptual belgilarihaqida ma'lumot berishi mumkin, biroqu kontseptni to'liq namoyon eta olmaydi. U kontseptual bilimga yetishish uchun vosita, fikrlash faoliyatida foydalanishga imkon berish uchun insonga go'yo, kontseptni "ochayotgan" kalit sifatida xizmat qilishi mumkin. Kontsept - bu, tilga nisbatan avtonom bo'lgan ong elementidir. A. Vejbitskayaning belgilashicha, kontsept - bu "tanasis tushunchadir", faqatgina so'z uning mavjudligiga sezilarli darajada isbot bo'lishi mumkin. Ko'pgina so'zlar semantik ikki taraflilikka, ya'ni, ma'no va mohiyatga yoki signifikativ va denotativ mazmunga egadirlar, bu esa "tilning kommunikativ va ifodali imkoniyatlarini nihoyatda kengaytiradi".

Inson so'zlarga ularning mohiyati darajasida emas, balki, ular tomonidan yetkaziladigan ma'nolar va kontseptlar darajasida egalik qiladi. So'zlar ma'nosi, bu

ma'nolar orqasida turgan va ularning tushunilishini ta'minlaydigan ma'lum kognitiv strukturalar bilan munosabatdordir. R.Langaker bu kognitiv strukturalarni "cognitivedomains" (kognitiv sohalar, doiralar), J.Fokone va Dj. Lakoff - mental maydonlar, Ch.Fillmor - freymlar, deb nomlagan. L.S.Vygotskiyning fikricha, fikrdan nutqqa bo'lgan harakat, bu individual ma'noning mohiyatga aylanishidir. Fikrning so'zga aylanish jarayoni ichki nutqda amalga oshiriladi, ya'ni, bu yerda ma'noning og'zaki belgilanishi sodir bo'lib, u keyin ravon so'zga aylanadi. Ichki nutqda tashqi nutq nisbatan so'zga ko'proq ma'no yuklangan. Ichki so'zning ma'nosi xarakatchandir; u ichki ongdan nafaqat uz aloqalarining, balki u bilan assotsiatsiyalangan hodisalarningtizimi sifatida qalqib chiqishi mumkin.

Kontsept hamma vaqtham og'zaki ma'noga ega bo'lavermaydi. "Verbalizatsiyaning turli mexanizmlari inson tomonidan har xil darajada o'zlashtiriladi, turli darajalarda saqlanadi va turli tezlikda yo'qotiladi. Bizning bilimlarimiz ma'lum kategorial strukturalar va prototiplar, kognitiv modellar yordamida tashkil qilinadi. N.N.Boldırovning ta'kidlashicha, kognitiv modellar, o'z navbatida kuyidagi kognitiv modellar yordamida strukturlanadigan mental maydonlarni o'z tarkibiga oladi, bular: obrazli-sxematik (sigimlar, manba-yo'l-maqsad, fon-figura, qism-bir butun vah.k.), propozitsional (propozitsiya, stsensariy, sxema, taksonomiya, belgilar tarami va h.k.), metaforik, metonimik mental maydonlardir.

Kontsept tipologiyasi masalasi Dj.Lakoff, Dj.Teylor, L.Talmi, Ye.S.Kubryakova, A.P.Babushkin, N.F.Alefirenko, Z.D.Popova, I.A.Sternin va boshqalarning ishlarida ham ko'rib chikilgan. Juda ko'plab olimlarning tasniflariga asoslangan holda tarkibiga kontsept-taqdimlar, sxema-kontsept, tushuncha-kontsept, freym, stsensariylarni olgan kontseptlarning yig'ma tipologiyasini taklif qilish mumkin. R.Langaker til birliklari ma'nolarini sxemalar kurinishida tasvirlashni taklif qiladi. Sxema asosida, ikkinchi darajali alomatlardan mavhumlashtirilgan holatda, asta-sekin tushuncha vujudga keladi.

Tushuncha- bu predmetning yoki hodisaning eng umumiy, muhim alomatlarini mujassam qilgan kontseptdir. Prototip - ma'lum kategoriyaning tipik a'zosidir. Rivojlanish, xarakat qilish, dinamika sxemalari, bir necha bosqichlardan: voqeaning boshi, kul'minatsiyasi va yakunidan tashkil topgan stsensariyni keltirib chiqaradi. Freym

- predmet yoki hodisa to'g'risidagi standart bilimlarning yig'indisini namoyon etuvchi ko'p komponentli kontseptdir. Ch.Fillmor, uni bilishni, u yoki bu so'z bilan ifodalangan kontsept bilan tahmin qilingan kognitiv struktura sifatida belgilaydi. Z.D.Popovaning yozishicha, freym strukturalari tematik printsip buyicha til birliklarining leksik kategorizatsiyasi va subkategorizatsiyasining negizi sifatida xizmat qilishi mumkin. Muallifning ta'kidlashicha, freym strukturalarining jalb etilishi, shuningdek, funktsiyaviy darajadagi ma'nolarning shakllantirilish uslublarini tushuntirishga yordam beradi.

Freym bilimning shunday strukturasi bo'lib xizmat qiladiki, u yoki boshqa bir kontsept bilan bog'liq bo'lgan tipik va potentsial jihatdan ehtimol qilingan asosiy axborotni o'zida mujassam etadi. Ular zaruriyat yuzasidan xotirada saqlanayotgan komponentlardan tashkil topadi.

Qator ishlarda kontseptlar va freymlar hajmining kesishuvi kuzatiladi. A.P.Babushkin mental strukturalarning boshqa tiplari orasidan, o'z ko'rinishidan, xotirasida saqlanayotgan tipik assotsiatsiyalarning yig'indisini ifodalovchi kontsept-freymnlarni ajratadi. Olim freymni kontseptning tipi sifatida belgilaydi. Kontsept o'z tabiati bo'yicha noverbal hosila bo'lib hisoblanadi. Verbal ta'rifning imkoniyatlari uning faollashuvining faqatgina ikkinchi bosqichida, irodaviy kuchlarni ishga solish va e'tiborni uning qaysidir aspektlariga diqqatni jalb qilish bilan amalga oshiriladi.

Turli tipdagi kontseptlar o'rtasida aniq chegaralar bo'lmaydi, ular harakatchandir. Kontseptlar tiplari mazmuni va strukturasi bo'yicha ham rang-barangdir. Ular uchun umumiy jihat ularning har biri universal kodning birligini ifodalovchi negizli kognitiv qatlamga egaligidir.

Negizli kognitiv qatlam, kontseptning rivojlanishini, uning boshqa kontseptlar bilan munosabatlarini aks ettiruvchi, boshqa kognitiv qatlamlar bilan to'ldirilishi mumkin. Negizli qatlam va kognitiv qatlamlarning yig'indisi kontseptning hajmini tashkil etadi va uning strukturasi belgilaydi. Z.D.Popova va I.A.Sterninlar kontseptlarning uchta strukturaviy tipini ajratadi: bir darajali, ko'p darajali, segmentli.

1. Bir darajali kontsept faqatgina bitta negizli qatlamdan iborat. Bunday strukturaga go'dakning ongidagi ko'pgina kontseptlar ega bo'ladi. Ko'p darajali kontsept o'z tarkibiga, abstraktsiya darajasi bo'yicha farqlanadigan bir necha kognitiv qatlamlarni kiritadi.

Segmentli kontsept o'z tarkibiga abstraktsiya darajasi bo'yicha teng huquqli bo'lgan boshqa qatlamlarni ham kiritadi. Negizli qatlam va kognitiv qatlamlarning yig'indisi - bu kontseptning o'zagidir [28].

2. Keyingi yillarda turli sohalarda tadqiqot olib borayotgan olimlar, jumladan, tilshunoslar ham kontseptlar, mikrokontseptlar, makrokontseptlar va superkontseptlarni ajrata boshladilar. Makrokontseptlar mental birlikning semantik potentsialini amalga oshiradi va umumiy tushunchaning barcha semantik modifikatsiyalarining manbasi va boshlang'ich punkti sifatida ifodalanadi. Superkontsept mental birlikning sintaktik imkoniyatlarini ifodalaydi va umumiy kontseptual ma'no bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlarning xilma-xilligida ifodalanadi. Bu tushunchalar mazmuni jihatidan juda yaqin va roli bo'yicha faqatgina, tildan tashqari voqelik va global tushuncha aspektlarining konkretizatsiyasi to'g'risidagi mental mazmunni yetkazishda o'zaro farqlanadi. Yanada abstraktroq global ma'noni ifodalaydigan superkontsept kontseptual sinfning eng yuqori pog'onasini tashkil etadi. Unda ob'ektlar va vaziyatlar to'g'risidagi bilimlar yig'indisi aloqalar va munosabatlarning bir butunligi va ko'p xilligida mujassamlangan.

3. Dunyoning tilga oid va tushunchaviy manzaralari aynan, global kontseptlar (superkontseptlar)dan tashkil topadi. Superkontsept, abstraktsiyaning eng yuqori darajasining semantik kategoriyasi bo'lib, turli hajmdagi leksemalarning bloklarini, ya'ni, kamroqhajmdagi paradigmatic guruhlarni o'ziga kiritib oladi.

4. S.D.Lixachyovning ta'rificha, kontseptosfera-ma'lum millatning kontseptlar yig'indisidir. Millatning madaniyati, uning folklori, adabiyoti, fani, san'ati, dini, tarixiy tajribasi naqadar boy bo'lsa, shu qadar, uning kontseptosferasi boy bo'ladi [29]. V.V. Красных milliy kontseptning quyidagi ta'rifini beradi: "milliy kontsept- eng umumlashgan, maksimal darajada mavxumlashgan, biroq ongda konkret tarzda namoyon bo'lgan milliy madaniyat hususiyatga ega barcha valentli aloqalarning yig'indisida kognitiv jihatdan qayta ishlanishga tortilgan "predmet"ning g'oyasidir" [30].

5. Kognitiv lingvistika insonning faol, ongli-kreativ faoliyatidan kelib chiqadi. V.Z. Демьянковning ta'kidlashicha, kognitiv lingvistikada "insonga homoloquens sifatida xos bo'lgan, faqatgina, u va yana u kognitiv struktura va jarayonlar ko'rib chiqiladi" [31].

6. Dunyo manzarasi inson muloqoti uchun birinchi darajali ahamiyatga ega. V.I.Postovalovning hisoblashicha, dunyo manzarasi insonlar integratsiyasining o'zagi, inson hayotiy faoliyatining turli sohalarini uyg'unlashtirishning va ularning o'zaro aloqasining vositasi bo'lib hisoblanadi [32].

7. Modomiki, til insonning alohida atributi (ramzi) hisoblanar ekan, olamning lisoniy manzarasida inson markaziy figura sifatida gavdalanadi. Inson - tilning yaratuvchisi va tarqatuvchisi, olamning asosiy harakat qiluvchi shaxsidir. Jismoniy, intellektual va nutriy harakatlarni bajarayotgan odam olamning lisoniy manzarasida dinamik jihatdan faoliyatli zot sifatida gavdalanadi. U tabiatda va jamiyatda yashaydi. U harakat qiladi, faoliyat ko'rsatadi, fikrlaydi, bilimni egallaydi, his etadi. Inson predmetlar va hodisalarning alomatlarini, ularning aloqalari va munosabatlarini ko'radi va bilib oladi. Konkret predmetlar va hodisalarni kuzatish, inson sabab-oqibatli aloqalarni topish jarayonida abstrakt fikrlashgacha ko'tariladi.

8. Olamning barcha turli manzarasi, insonning butun hayoti tilda aks ettiriladi va kommunikatsiyaning mazmuni bo'lib qoladi. Til ham ob'ektiv ham sub'ektiv hodisadir, u dunyoga va insonga qaratilgan. G.V. Kolshanskiy ta'kidlaganidek “Til ison ongidan ayri bo'lgan dunyoni yarata olmaydi, chunki, u o'z-o'zidan inson dunyosini ob'ektiv dunyoning aks yettirilishi shakli sifatida ifodalaydi”.

9. Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqqan holda shunday xulosa qilish mumkinki, kognitiv tilshunoslikning predmeti til va nutqda aniq konseptlarni aks yettiruvchi leksik, frazeologik birliklar, fikrlar va matnlardir. Kontseptning qanday tomonlari, qatlamlari, komponentlari tilning semantik maydoniga kirish, qanday qilib ularni kategoriyalashtirish, ma'lum tilning qaysi qismlarida yuzaga kelishi, namoyon bo'lishi kognitiv lingvistikada o'z aksini topadi. Kognitiv lingvistik tadqiqotlarning asosiy maqsadi u yoki bu milliy tilda ma'lum kontseptning o'rganilishiga bog'liq barcha so'z va ifodalarni tavsifla, ularni tizimlashtirish, ya'ni til tiziminig qismlarini bir tartibda belgilash orqali berilgan kontseptning mohiyatini ochib berishdir. Chunki, kognitiv tilshunoslik ijtimoiy hayotda jamlangan fikr va tasavvurlarning bevosita til bilan bog'liqligini, kognitiv va lisoniy strukturalarning munosabatini o'rganuvchi, insonning bilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi fandir.

KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA QO'LLANILDADIGAN TERMINLAR

SENARIY

Stsenariy biror bir tipik hodisaga xos o'zaro bog'liq faktlarning ularning uzviyligini aks ettiruvchi namunaviy shakl misolida yoritilishidir. Ushbu namunaviy struktura ma'lum voqelik bo'lagiga oid harakatlar, holatlar uzviy munosabatlaridan iborat (masalan, restoranda tushlik, dars jarayoni, institutga qabul, muzey ziyorati va hokazo).

Stsenariy (scenarios) tushunchasini kognitologiyaga oid tadqiqotlar doirasiga birinchilardan bo'lib sun'iy intellekt bo'yicha mutaxassislar R.Shenk va R.Abelsonlar kiritishgan (Schank yet al. 1975) va ularning talqinicha, ushbu tushuncha voqealar ketma-ketligini, ularning o'zaro boglanishini ko'rsatish uchun zarur. Har bir stsenariy tarkibida slotlar (kichik mazmundagi qismlar) ajratiladi va bu slotlarda voqea yshtirokchilarining roli, maqsadi kabilar o'z aksini topadi.

«Oziq-ovqat do'koni» stsenariysi taqdimiga misol keltiramiz:

Stsenariy: do'kon

Rollar: mijoz, sotuvchi, xazinachi. Maqsad: oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish uchun do'konga borish.

1 -sahna: do'konga kirish:

Mahsulotlarni ko'zdan kechirish,

Mahsulotlar narxi bilan tanishish,

Sotuvchi bilan maslahatlashish,

Mahsulotlarni tanlash,

2-sahna: tanlangan mahsulotlarni aravachaga solish, xazinachi tomon yurish.

3-sahna: xazinachidan hisob-kitobni so'rash, Pulnito'lash, Chekni olish, Do'kondan chiqib ketish

SKRIPT

Okript (inglizcha script so'zining tub ma'nosi «qo'lyozma, yozuv») namunaviy kontseptual tuzilmalarning bir turi sifatida qaralib, u inson tafakkurida aks etayotgan borliqdagi voqealarning me'yoriy ketma-ketligi namunasidir. Skript tarkibiy tuzilishi jihatidan stsenariyga juda ham yaqin turadi, hatto ayrim hollarda uni to'lig'icha takrorlaydi. Skript tarkibiga kiruvchi voqealarning sabab-oqibat munosabatlari asosida,

tizimiy bog'lanishi, ketma-ketligi hamda ushbu voqealarning stereotip takrorlanuvchanlik xususiyati uning asosiy tavsifiy belgisi sifatida qaraladi.

Skriptning semantik xususiyatlari haqida gap ketganda, uni Ye.Rosh talqinidagi «prototip» tushunchasi bilan kiyoslash mumkin. Ushbu nazariya doirasida axborotning sub'ekti ongida tarkib topishi farqlovchi va umumlashtiruvchi belgilarning kichik to'plamchalarining o'zaro munosabatga kirishuvidan iborat deb ta'riflanadi. Demak, skript bevosita, ma'lum leksik birlik vositasida inson ongida «uyg'otiladigan» semantik axborot to'plamidan hosil bo'ladi.

Masalan, «Doctor» (doktor) skripti quyidagi semantik axborot to'plamidan iborat:

- Subject (+ Human) (+ Adult)
- Sub'ekt (+ shaxs) (+ katta yoshda)
- Activity : Studi medecine
- Faoliyat: tibbiyotni o'rganish
- Receive patients: patients come
- Bemorlarni kabul kilish: bemorlar kelishadi
- doctor listens to complaints
- doktor bemor shikoyatlarini eshitadi.
- doctor examines the patient, etc
- doktor bemorlarni ko'rikdan o'tkazadi va hokazo.

FREIM

Har bir inson xotirasida ma'lum miqdordagi bilimlar strukturasi zahirasi saqlanadi va aynan shu zahira axborotni qabul qilib idrok etish vositasi rolini o'taydi. Boshqacha aytganda, har bir shaxs ongida «freymlar to'ri to'plami» mavjudkim, ushbu to'plam bilim va idrok faoliyatini ma'lum ko'rinishdagi «andoza»lar asosida amalga oshishini ta'minlaydi.

Freym xuddi shu guruhdagi andozali strukturalar qatoriga kiradi. «Freym» (Frame) tushunchasining ilmiy qo'llanishga kiritilishi kompyuterni dunyoviy bilim imkoniyatlari bilan ta'minlash va sun'iy intellekt nazariyasi rivojlantirish borasidagi intilishlar bilan bog'liq. Kompyuter bilimlari bo'yicha mutaxassis Marvin Minskiy freymni «andozali voqelik holatini aks ettiruvchi axborot strukturasi» deb ta'riflaydi (Minsky 1975: 212;


Minskiy..-, 1979). «Freym» tushunchasini tilshunoslikka birinchilardan bo'lib Ch.Filmor tadbiq etdi (Fillmore 1985; Fillmor 1988). Ammo oldingi tajribaning yangi axborotni

qabul qilish va idrok etishdagi rolini maxsus o'rgangan psixolog F.Bartlett ushbu faoliyat «bilishning stereotni namunalari hamda ma'lum ijtimoiy guruh uchun xos bo'lgan normalar (me'yorlar)» zahirida kechishini ta'kidlagan .

Tilshunos Ch.Filmor talqinida «freym» tushunchasi ancha tor ma'no kasb etadi.

Uning talqinicha, freym tajribani andozaga soluvchi kognitiv tuzilma bo'lib, ushbu tuzilma lisoniy birliklar vositasida shakllanadi hamda kontseptning negizini tashkil qiladi.

Charlz Fillmor freym tushunchasini izohlash uchun keltirgan ayrim misollarga murojaat qilamiz. Binobarin, «commercial event» (savdo voqeasi) deb nom olgan freymni olaylik. Ushbu freymda aks etadigan voqea inglizcha buy «xarid qilmoq» freymi ko'llanishi bilan tasvirlanadi. Dastlab «A» shaxsning puli bor, boshqa bir shaxs «V» da sotiladigan mol (tovar) bor. Narx kelishilgandan so'ng «L» pulni «V» ga to'laydi va kerakli molni sotib oladi. Voqeaning yakunida «A» xarid qilingan tovarning egasiga aylanadi. «V» esa - pulning egasi. Ayrim yo'l-yo'lakay uchraydigan holatlarni chetlab aytish mumkinki, BUY «xarid qilmoq» kategoriyasi ka.mida yana to'rt kategoriya bilan boglanadi. Bular BUYER «xaridor», SELLER «sotuvchi», GOODS «tovar, mol» va MONEY «pul». Aynan shu kategoriyalar bog'liqligi BUY «xarid qilmoq» freymini tashkil etadi (Fillmore 1977: 104):BUY «харид қилмоқ» фойдаланиш-



GEShTALT

O'tgan asrning birinchi choragida olmon psixologlari V.Kelsr, M. Vsrtxaymer, K.Dunker va ularning boshqa hamkasblari laboratoriyalarda olib borgan amaliy tajribalari asosida predmetlarning xususiyatlarini ularni mantiqan yangi munosabatlarda, bog'lanishlarda bo'lishini tasavvur qilish vositasida aniklash mumkin, degan xulosaga kelishdi. Bu xulosa psixologiyada yangi oqim geshtaltpsixologiya shakllanishiga turtki bo'ldi. Yangi yo'nalishning asosiy tushunchasi «geshtalt» olmoncha gestalt (obraz, struktura, yaxlit shakl) so'zidan olinganligini e'tiborga olsak, ushbu tushuncha ruhiy tuzilmalar obrazlarning o'ziga xos yaxlitlikni ta'minlovchi belgi va xususiyatlarining umumlashmasini antlatadi. Geshtalt nazariyasining asoschilaridan biri Maks Vertxaymer (1880 -1943) ushbu muammoni quyidagicha bayon qilgan edi: «... mavjud bog'liklar asosida yuzaga keladigan yaxlitlik (umumiylik) avval alohida bo'laklar ko'rinishidagi elementlarning keyingi jamlanishidan iborat bo'lmasdan, balki ushbu yaxlitlikning ichki struktur(aviiy) qonuniyatlari bilan belgilanadi»

Ingliz faylasufi taklif qilayotgan induksiya metodining bilish jarayonida amaliy ahamiyatini xech ham inkor qila olmaydi. Ammo ushbu metod qo'llanilganda bilish ob'ektining to'liq mohiyati ochilmasdan qoladi, bunda ob'ektning ko'proq tashqi qiyofasiga oid xususiyatlar, uning boshqa ob'ektlar bilan munosabatining ham tashqi tasodifiy tomonlari e'tiborga tushib, ichki mohiyat nazardan chetda qolishi mumkin. Bunday bilish jarayoni ehtimolli bilimdan boshqa narsa emas. Ob'ektning asl mohiyatini bilish uchun asosiy xususiyatni tasodifiydan ajrata olish, tashqi munosabatlardan ichki aloqaga o'tishni ta'minlash hamda ob'ektning anik, ayoniy obrazi o'rni ideal obrazga murojaat qilish imkonini yaratadigan metod zarur bo'ladi.

Bizningcha, bilish jarayonida yaxlit va uning bo'laklari o'rtasidagi jonli aloqani e'tirof etish geshtalt nazariyasi tamoyillari va tahlil uslublarini inkor qilmaydi. Geshtaltpsixologiya ham yaxlitlikning bo'laklarni idrok etishdagi ta'sir rolini alohida ta'kidlaydi hamda bo'laklarning yaxlitlik tarkibida biriktiruvchi faktorlarni topish vazifasini ko'yadi.

Xuddi shu narsani borliqni idrok etishning «geshtalʼt qonuniyatlari» yoki «geshtalʼt tamoyillari»da ko'rish mumkin. Bu tamoyillarining ayrim-larini eslatmoqchiman (Ungerer 1996: 33).

- «yaqinlik tamoyili» (principale of proximity): bir-biriga yaqin joylashgan elementlar o'zaro bog'liq holda idrok etiladi;
- «o'xshashlik tamoyili» (principale of similarity): bir-biriga monand elementlar yagona bir bo'lak yoki qism sifatida idrok qilinadi;
- «yopiqlik tamoyili» (principale of closure): idrok harakati berk (tugallangan) shaklga yo'naltiriladi;
- «davomiylik tamoyili» (principale of continuation); aloxida elementlar o'rtasidagi uzilish kam bo'lsa, ular yaxlitlik sifatida idrok etiladilar.

Voqeliklardagi ob'ektlarni yaxlitlikda xolistik idrok etilishi xuddi shu tamoyillarga asoslangan. Masalan, turli ko'rinishdagi uy binolari suratini solishtirsak, ularning barchasida umumiy elementlar bor (deraza, eshik, devor, tom va hokazo). Biz bu suratlarni birinchi ko'rganimizda binolarni alohida qismlarga ajratmaymiz, aksincha, faqatgina bino sifatida ko'ramiz. Bunda yaxlitlik idroki, geshtalʼt tamoyillari amal qiladi: Binoning barcha qismlari bir-biriga yaqin, bog'liq («yaqinlik tamoyili»); binoning eshiklari bir xil («o'xshashlik tamoyili»); binoning barcha elementlari bir-birini davom ettiradi, o'zaro aloqada («davomiylik tamoyili»).

Yaxlitlik va bo'lakning bu turdagi munosabati bevosita bo'laknnig yaxlitga «tobe» bo'lishida namoyon bo'ladi hamda ushbu tobelik quyidagi qonuniyatlarda o'z aksini topadi:

- yagona bir element turli yaxlit tuzilmalar tarkibida turlicha idrok qilinadi;
- obrazning ayrim elementlari almashtirilsa-yu, lekin ular o'rtasidagi munosabatlar o'rami saqlansa, obrazning umumiy strukturasi o'zgarmaydi;
- ayrim hollarda ma'lum bir bo'laklar tushib qolganda ham yaxlitlik saqlanadi.

2. LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK

Lingvomadaniyatshunoslik fan sifatida va uning o'rganish ob'ekti va asosiy tushunchalari .

Til – madaniyat – elat masalasining tilshunoslikdagi muammosi.

Lingvomadaniyatshunoslik fanining yo'nalishlari.

Qiyosiy lingvomadaniyatshunoslik fan sifatida

Inson faoliyatining o'ziga xos barcha tomonlarini o'z ichiga oladigan madaniyat fenomenining tilda ifodalanishi lingvomadaniyatshunoslik bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarda yetakchi rol o'ynaydi. Hozirgi kunda til va madaniyat uyg'unligini sinxron bog'lanishda o'rganishga bag'ishlangan bu fanning jadal shakllanishi va rivojlanishi kuzatilmoqda. Bir tomondan, lingvomadaniyatshunoslik tilda mavjud insonning madaniy omiliga, ikkinchi tomondan, insondagi lisoniy omilga yo'naltirilgan.

Darhaqiqat, «har bir shaxsning lisoniy qobiliyati va muloqot malakasi ma'lum madaniyat hududida, madaniy muhitda shakllanadi va faollashadi. Shunday ekan, insonning tafakkur va lisoniy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan birliklarning strukturaviy va mazmuniy sathlarida madaniy elementlarning aks topishi tabiiydir»(Safarov Sh.:2006:65).

Demak, lingvomadaniyatshunoslik inson haqidagi fanning bir qismidir, uning o'ziga jalb qiluvchi markazi madaniyat fenomenidir.

Til va madaniyatni xarakterlovchi belgilarning o'xshashligi ularning munosabatini yagona metodologik asosda ko'rib chiqish imkonini beradi. Lingvistik adabiyotda til va madaniyatning quyidagi umumiy belgilarning mavjudligi e'tirof etiladi:

1. Madaniyat va til – bu insonning va xalqning dunyoqarashini aks ettiruvchi ong shakllaridir.

2. Til va madaniyat o'zaro muloqotda (dialogda) mavjuddir, chunki nutq va uni qabul qiluvchi har doim madaniyat sub'ektidir.

3. Ikkala fenomen ham individual yoki umumiy mavjudlik shakllariga ega, madaniyat va tilning sub'ekti har doim individ yoki sotsium, shaxs yoki jamiyat hisoblanadi.

4. Til va madaniyat uchun umumiy bo'lgan jihat bu normativlik.

5. Tarixiylik esa til va madaniyatning eng mohiyatli xususiyatlaridan biridir.

6. Madaniyat xalqning o'ziga xos tarixiy xotirasidir, chunki til o'zining kumulyativ (to'plovchi) vazifasiga ko'ra kollektiv xotirani saqlaydi va boyitadi (Teliya V.N:1996, 217)

Til va madaniyat o'rtasida umumiylik, o'xshashlik qanchalik darajada bo'lmasin, ularni farqlovchi xususiyatlar ham mavjud. Til va madaniyatning o'ziga xos xususiyati o'rtasida muhim farqlar mavjudligi quyidagicha izohlanadi:

1. Kommunikatsiyaning vositasi sifatida bo'lgan tilda ommaviy adresatga yo'l-yo'riqlar ustun turadi, madaniyatda esa saralanganlik qadrlanadi.

2. Madaniyat belgi tizimi bo'lgani holda, u tildan farqli ravishda o'zicha tashkil topa olmaydi.

3. Til va madaniyat turlicha semiotik tizimlardir. Bunday qiyoslash tadqiqodchilarni madaniyat tilga izomorf emas, gomomorfdir, ya'ni tarkiban o'xshashdir

Madaniy bilimlar esa shu tilda so'zlovchining madaniy-lisoniy kompetentsiyasining (bilimdonligining) bir qismidir. Madaniy kompetentsiya til kompetentsiyasi bilan har doim ham mos kelavermaydi, ammo til kompetentsiyasining madaniy kompetentsiyaga o'zgarishi madaniy kod kategoriyalarida til belgilari interpretatsiyasiga (talqiniga) asoslangan. Aynan ana shu talqin madaniy-lisoniy kompetentsiyadir.

Olamning ikkita modeli – kontseptual va til modellarining o'zaro bog'liqligini qayd qilib, Yu.S.Stepanov ularni o'zaro almashtirib qo'ymaslik haqida ogohlantiradi: «Til modelini madaniyatning predmeti sohasiga, va aksincha, madaniyat modelini tilning predmeti sohasiga ko'chirib bo'lmaydi».

Yu.S.Stepanov ham lingvistik nazariyaga, ham madaniyat nazariyasiga qo'llaniladigan alohida, ancha umumiy tushunchalar apparatini ishlab chiqishga da'vat qildi. Bu esa lingvomadaniyatshunoslikning terminologik tushunchalar asosini (fundamentini) tashkil etadi.

Lingvomadaniyatshunoslik XX asrning oxirgi choragida, tilshunoslikdagi antropologik paradigma mahsuli sifatida paydo bo'ldi. Unga birinchi bo'lib V. fon

Gumbolʻdt asos solib, til xarakteri va xalq xarakterining bir-biriga bogʻliqligini ifodalab bergan. “Turli tillar oʻz mohiyatiga, ong va sezgiga taʼsiriga koʻra haqiqatan ham dunyoni turlicha his etishdir” va “tilning oʻziga xosligi millatning mohiyatiga taʼsir etadi, shuning uchun ham tilni sinchiklab oʻrganish uchun tarix va falsafa insonning ichki dunyosi bilan bogʻlaydigan hamma narsani oʻz ichiga olishi kerak”, degan fikrni bildiradi (Gumbolʻdt V.fon: 1985,370).

Bunday yondashuvning yangiligi shundan iborat ediki, turli til shakllari ortida olim borliqni tafakkur qilish va anglash uslublaridagi farqlarni koʻrdi va tilda madaniyatning oʻziga xos xususiyatlari mujassamlanadi, degan xulosa chiqardi. V.Gumbolʻdtning “til faoliyat sifatida” xususidagi gʻoyasini A.A. Potebnya yanada chuqurlashtirib, tushuntirib berdi (Potebnya A.A.: 1913, 38).

Yevropalik neogumbolʻdtchilik vakillari – L. Vaysgerber, X. Glints va X. Xolʻtslar tafakkurning tarkibini va fikrning tuzilishini tilning oʻziga xos tuzilishlariga bogʻliqligi haqidagi masalani tadqiq qildilar. Ular tilning “mazmuniy” tomoniga asosiy eʼtiborni qaratgan holda, turli tillarning semantik jihatlarini tahlil qilib, ular oʻrtasidagi oʻxshashlik va farq qiluvchi tomonlarini aniqladilar. L. Vaysgerber «borliqni verbalizatsiyalash» tushunchasini kiritib, uni “borliqni til orqali ishgʻol qilish jarayoni va uni bilish obʼekti” deb taʼrifladi va shuningdek, u tilning semantik jihatlarini “taʼsir etuvchi kuch” sifatida tasavvur qilishi kerak boʻlgan “yangi grammatika” tuzilishi zarurligi haqidagi fikrni ilgari surdi (Guxman M.M.: 1961,129).

AQShda V. fon Gumbolʻdt taʼlimotini U.D. Uitni, D.U. Pauell, F.Boas, shuningdek, E. Sepir va B.L. Uorflar rivojlantirganlar.

E. Sepir va B.L. Uorf Shimoliy Amerikalik xindularning tillarini tadqiq qilish natijasida olgan materiallari asosida til kategoriyalarining ongga taʼsiri haqida fikr yuritdilar.

Ular tilning nisbiyligi faraziga asoslanib, turli tillarda turlicha kategoriyalarning mavjudligi shundan dalolat beradiki, bu tillarning sohiblari oʻzlarini oʻrab turgan olamni turlicha tushunadilar, degan xulosaga keldilar.

XX asrning oʻrtasida AQShda “insonni tilda” tadqiq qilish yoʻnalishi paydo boʻldi, bu yoʻnalish vakillaridan biri D.Xayms lingvistik antropologiyaning nazariy va metodologik asoslarini – “tilni va nutqni antropologiya kontekstida oʻrganishni” ishlab chiqdi. Olim shu

qoidadan kelib chiqdiki, bunga ko'ra “tilshunoslikning vazifasi – til nuqtai nazaridan til haqidagi bilimlarni umumlashtirish, antropologiyaning vazifasi esa til haqidagi bilimlarni inson nuqtai nazaridan umumlashtirishdir”(Hymes D.: 1963, 277).

Lingvistik antropologiyaning ijtimoiy paradigmadagi o'rni haqidagi masala bu yo'nalishning yana bir vakili A.Duranti tomonidan tadqiq kilindi; uning nazariyasiga ko'ra, «lingvistik antropologiya qolgan boshqa fanlardan shu bilan farq qiladiki, u asosiy e'tiborni real borliqning individual taqdimotiga qaratadi »(Duranti A.: 1992, 3).

Tilshunoslar til va madaniyatning o'zaro aloqalari masalalariga ko'plab murojaat qilishmoqda, jumladan Yu.S. Stepanovning qayd qilishicha, «oxirgi o'n yilliklarda birorta ham tilshunos, agar u dogmatik strukturalizmning qoidalarini tanqidsiz qabul qilmagan bo'lsa, tilda antropotsentrizm masalasini chetlab o'tmagan»(Stepanov Yu.S.:2007,14)

Shunday qilib, lingvomadaniyatshunoslikning paydo bo'lishi XX-XXI asrlarning falsafiy va lingvistik nazariyalari taraqqiyotining qonuniy natijasidir. So'nggi yigirma-o'ttiz yilda bu fanga bag'ishlangan bir necha ishlar (V.A. Maslova, A.T. Xrolenko, V.V. Vorob'ev, N.F. Aliferenko) nashr qilindi.

V.A. Maslovaning darsligi bu fan bo'yicha eng ommabop ish hisoblanadi. Unda lingvomadaniyatshunoslik fanining metodologik asosi keltiriladi va Rossiyadagi lingvomadaniy tadqiqotlarning zamonaviy yo'nalishlari bayon qilinadi. Muallif “lingvistika va madaniyatshunoslikning tutashgan joyida vujudga kelgan tilshunoslikning sohasi” degan fikrni bildirib, lingvomadaniyatshunoslikning fanlararo xarakterini ta'kidlaydi. Uning ta'rifiga ko'ra, “lingvomadaniyatshunoslik - milliy jonli tilni o'zida mujassamlantirgan va til jarayonlarida namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy madaniyatni o'rganadigan ijtimoiy fan, yoki “madaniyatshunoslik va tilshunoslik, etnolingvistika va antropologiyaga oid tadqiqotlar natijasini o'z ichiga oladigan bilimlarning integrativ sohasidir”

Muallif madaniy ma'lumotning uzatuvchisi (translyatori) sifatida tilning o'zaro aloqasini va madaniyatni, ya'ni xalqning tarixiy xotirasini lingvomadaniyatshunoslikning ob'ekti, uning tadqiqot ob'ekti esa til birliklaridar, ular madaniyatda timsoliy, etalonli, jonli-metaforik ma'nolarni kasb etadilar va ular afsonalarda, rivoyatlarda, taomillarda, marosimlarda, folklor va diniy diskurslarda o'rnashib qolgan arxetipik va prototipik insonning ongi faoliyatining natijalarini umumlashtiradilar,degan fikrga keladi.

Lingvomadaniyatshunoslikning nazariy-metodologik asoslari tilshunoslikda V.V.Vorob'evning «Lingvomadaniyatshunoslik: nazariya va metodlar» kitobida ancha to'liq bayon qilingan. Bu kitobda lingvomadaniyatshunoslik lingvomamlakatshunoslikning nazariy asosi deb qaraladi; u “madaniyatning va tilning bir-biriga bog'liqligini va o'zaro munosabatlarini ishlab turgan sharoitda o'rganuvchi va bu jarayonni birliklarning bo'linmas tuzilishini til va tildan tashqari (madaniy) mazmunni zamonaviy afzalliklar va madaniy qoidalarga (normalar tizimi va umuminsoniy qadriyatlarga) yo'naltirilgan tizimli metodlar yordamida aks ettiruvchi kompleks umumlashtiruvchi fan deb ta'riflanadi”.

Ye.M.Veremagin va V.G.Kostomarovlar sotsiolingvistikaning lingvodidaktik analogi yoki korrelyati deb ta'riflagan lingvomamlakatshunoslikni, V.V.Vorob'ev amaliy aspekt, chet elliklarga tilni o'qitish jarayonida lingvomadaniyatshunoslikning amaliy jihatdan ro'yobga chiqishi deb qarashni tavsiya qiladi.

V.V. Krasnix o'zining «Etnopsixolingvistika va lingvomadaniyatshunoslik» kitobida lingvomadaniyatshunoslikni “bevosita milliy til manzarasi, tilni bilish, mental-lingval kompleks xususiyatlarini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan madaniyatning tildagi va diskursdagi ko'rinishi, aksi va qayd qilinishini o'rganuvchi fan” deya ta'riflaydi(Krasnix V.V.:2002,12). Demak, lingvomadaniyatshunoslik o'ziga xoslikni aniqlash uchun kommunikatsiyaga lingvo-kognitiv yondashuvni qo'llash tavsiya qilinadi, chunki bu yondashuv uni ham umumlingvistik aspekt, ham milliy aniqlangan komponent sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Lingvomadaniyatshunoslik masalalari, shuningdek, Volgograd maktabi olimlari, xususan, V.I. Karasik va Ye.I. Sheygallar tomonidan xam tadqiq qilindi. V.I. Karasik lingvomadaniyatshunoslikni “ilmiy bilimning til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siri kompleks sohasi” deb qaraydi va uning qiyoslanish xarakteriga asosiy urg'u beradi. U realiyalarni va “qo'shimcha ma'lumotlar”ni mazkur xalqning madaniyatini bir xilda tushunish uchun qo'shimcha ma'lumot talab qiladigan konkret va abstrakt nomlarning mazmuniy jihatlarini” o'rganish birliklari sifatida tavsiya qiladi.

Ye.I. Sheygal va V.A. Buryakovskayalarning ishlarida lingvomadaniyatshunoslik «olamning kontseptual lisoniy manzarasi nuqtai nazaridan ijtimoiy ong va til orqali anglash” ni o'rganadigan fan sifatida ta'riflanadi. Mualliflar tomonidan turg'un birikmalar

tarkibiga kiruvchi etnonimlarning lingvomadaniy potentsiali, shuningdek etnonimlarning maqola matnlarida, hikoyalarda va latifalarda qo'llanishining o'ziga xosligi o'rganiladi.

Shunday qilib, lingvomadaniyatshunoslik masalalariga bag'ishlangan asosiy ishlarni tahlil qilib, shu haqida gapirish mumkinki, tilning madaniyatga oid tarkibini tadqiq qilish XX-XXI asrlar tilshunosligi taraqqiyotining qonuniy natijasidir. Ko'p olimlarning lingvomadaniyatshunoslikka qiziqishi uning istiqbolli ekanligidan dalolat berib turibdi. Lingvomadaniyatshunoslik tadqiqotining hammaga ma'qul bo'lgan ta'rifi tilni madaniyat bilan ajralmas bog'lanishda o'rganishdadir. Zero, til va madaniyat, milliy til va milliy madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'likdir.

Til va madaniyat tushunchalariga oid birliklarni ko'rib chiqishda, «avloddan avlodga (tarixiy aspekt), bir ijtimoiy kollektivdan boshqasiga, kollektivdan individga yoki buning aksi (ijtimoiy aspekt), individdan individga (individual-psixologik aspekt), bir millatdan ikkinchisiga (millatlararo aspekt) va boshkalar» (Vorob'ev V.V.:2007,45) lingvomadaniy ma'lumotlarni to'plash va uzatish jarayonida kompleks birliklar tushunchasiga kiritiladi, ular mazmun jihatidan ham lisoniy mazmunga, ham madaniy mazmunga o'zaro bog'liq bo'ladilar.

Bu hodisani belgilash uchun turlicha terminlar tavsiya qilinganligini ta'kidlaymiz: kontsept (Yu.Stepanov, V.Teliya, D.Lixachev, V.Neroznak, N.Arutyunova); lingvokul'turema (V.Vorob'ev), milliy sotsiomadaniy stereotip (Yu.Proxorov), kul'turoznak (madaniy belgi) (A.Onkovich), mifologema (V.Bazylev), logoepistema (E.Vereshagin - V.Kostomarov; V.Kostomarov - N.Burvikova, noema – yangi suz, yangi ibora yoki yangi birlik - E. Gusserly) va boshqalar. Terminlarning ko'pligi, ular o'rtasidagi o'ziga xos «musobaqadoshlik» (bellashuv) lingvomadaniyatshunoslik shakllanish davrini boshidan kechirayotganining belgisidir.

O'z-o'zidan ma'lumki, keltirilgan terminlar mazmun jihatidan (garchi kesishsa ham) to'la mos kelmaydilar, chunki ular tegishli fenomenlarning mentalikka, lisoniy-madaniy tushunchaga oid sohalariga, bu sohalar orasidagi munosabatlarga nisbatan turli qarashlarni ifoda qiladilar. Eng ahamiyatlisi shundaki, bu terminlarning har biri o'zining ilmiy paradigmasida qo'llaniladi va bu paradigmaga xos bo'lgan birliklarning o'zaro bog'liqligiga, bu birliklarning matn bilan munosabatlariga hamda ularning matndagi va diskursdagi

vazifalariga, tegishli birlikning adresatga ta'siriga xos bo'lgan qarashlar tizimini aks ettiradi.

Til va madaniyatning lisoniy xususiyatlarini lingvomamlakatshunoslik yondashuv doirasida o'rganish jarayonida kul'turema tushunchasi tavsiya qilingan. Jumladan, V.G.Gak madaniyatni ma'lum belgilar-kul'turemalar majmui deb hisoblaydi va u shunday ta'kidlaydi: «Tilga oid ifodaga ega bo'lgan kul'turemalar ba'zi bir realiyalarni – predmetlarni, vaziyatni, vazifani, urf-odatni, fe'l-atvor faktini va h.k.larni ifodalash va belgilash uchun borliqning ma'lum elementi bilan o'zaro munosabatda bo'ladilar» (Gak V.G.1998,49)

Etnopsixolingvistika nuqtai nazaridan Yu.A.Sorokin kul'turema/mentalemalarning aylanishi global kommunikativ tarmoq (etnos) ichida sodir bo'ladi deb hisoblaydi. Mazkur birliklar “gomogenlik, barqarorlik va teologik (teologiya – tabiatda hamma narsa oldindan belgilangan maqsadga muvofiq qilib yaratilgan deb talqin qiluvchi diniy ta'limot) jixatlar bilan xarakterlanib, lingvomadaniy umumiylikning (bir xillik) o'z noyoblighi va yaxlitligini saqlab qolish imkonini beradigan semiotik-madaniy himoya usullari haqida xabar beradi», degan fikrni bildiradi Yu.A.Sorokin.

Logoepistema tushunchasini Ye.M.Verezhagin va V.G.Kostomarovlar kiritgan va uni “til birligida saqlangan bilim, o'zining ichki yashirin shakliga, individual tarixiga, o'z munosabatlariga va madaniyatiga ega bilim”, deb ta'riflaganlar(Verezhagin Ye.M.,Kostomarov V.G.:1999,7).

Lingvokul'turema termini V.V.Vorob'ev tomonidan taklif etilgan. Bu terminning mazmuniga olim quyidagi fikrni joylagan: «Lingvokul'turema bosqichlararo kompleks birlik sifatida lingvistik va ekstralingvistik (tushunchaga oid yoki predmetga oid) mazmunlarning dialektik birligidan iborat»(Vorob'ev V.V.1997,35)

Bizning nazarimizda, logoepistema va lingvokul'turema tushunchalariga ancha mufassal xarakteristika berish mantiqqa mos ko'rinadi.

Hozirgi tilshunoslikda lingvokul'turema til sathi birligi deb qaralib, unda lingvistik va ekstralingvistik dialektik yaxlitlik aks etgan bo'lib, bu yaxlitlik o'z ichiga tushunchaga oid va predmetga oid mazmunni oladi. Dialektik aloqa ob'ektni anglash jarayonida bir tomondan lingvokul'turemaning tilga oid va tildan tashqari komponentlarini, ularning notengligi, farqini, ikkinchi tomondan ularning mosligini, aynan o'xshashligini taqozo etadi.

Til lingvokulturemaning tarkibiy qismi sifatida nafaqat uning “yuzaki”, ya'ni tilga oid ma'nosi haqida, balki uning “tugal” mazmuni (ma'nosi) madaniyatning asosi (elementi, segmenti) ekanligi haqida xabar beradi.

Lingvomadaniyatshunoslikning asosiy tushunchasi lingvokulʼturema ekanligini e'tirof etgan holda, O'.Q. Yusupov «lingvokulʼturema o'z semantikasida (ma'nosida) madaniyatning bir bo'lagini aks ettiruvchi til yoki nutq birligidir», degan fikr bildiradi

Lingvokulʼturemalar o'z ifodasida rang-barangdir – ular so'z , so'z birikmasi, matn abzatsi bilan, she'r bilan va hatto katta hajmdagi matn bilan berilishi mumkin.

V.V.Vorobʼev lingvokulʼturema birliklarining manbai quyidagi narsalar bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi:

1. xalq milliy madaniyatining eng ahamiyatli qismi bo'lgan, sivilizatsiyani va madaniyatni bilishning muhim manbai, millat ijtimoiy ongining in'ikosi bo'lgan xalq poetik ijodi;

2. tarix va ijtimoiy fikr yodgorliklari, shuningdek maxsus tarixiy, falsafiy, adabiyotshunoslik, lingvistik, estetik va boshqa tadqiqotlar;

3. millat va shaxsning eng muhim baholari saqlanib qolgan atoqli fan, madaniyat va adabiyot namoyondalarining fikrlari;

4. badiiy asarlar va publitsistika;

5. atoqli shaxslar milliy shaxsning modeli sifatida;

6. barcha narsalarning o'ziga xos xususiyatini yaqqol ajratib ko'rsatuvchi bir millat va uning madaniyatining qiyosiy foni sifatida chet elliklarning fikrlari va mulohazalari”

V.V. Vorobʼev lingvokulʼturema tushunchasini tadqiq qilib, uning iyerarxik tizimi birliklari – lingvokulʼturemalarni tashkil etuvchi lingvomadaniy maydonni tavsif ob'ektining asosiy birligi sifatida oladi. Fikrimzcha, bunday maydonlar olamning etnik manzarasini barpo etadi, ularni qiyoslash esa tillardagi va madaniyatlardagi o'xshashlik va farq qiluvchi jihatlarni aniqlaydi.

Lingvomadaniy maydon lingvokulʼturemalarning tuzilishi sifatida belgilarning, ma'nolarning va madaniyat predmetlari haqidagi tushunchalarning o'zaro munasabatda bo'lgan birligi bilan shakllanadi. Invariant ma'noga ega bo'lgan lingvokulʼturemalarning iyerarxik tuzilishi ma'lum madaniy sohani boshqalardan ajratib beruvchi tegishli madaniy

tushunchalarni ifoda etadi. V.V.Vorobʻevning fikricha maydon unda o'zak (invariant lingvomadaniy mazmunni uzatuvchi), markaz (asosiy tushunchalar, realemlar) va periferiya (ikkinchi semantik funktsiyadagi so'z-tushunchalar, bir-biriga bog'liq maydonlar) ajralib turadigan ma'lum mazmun tarkibini beradi

Shunday qilib, lingvokulʼturema tarkibida madaniy-tushunchaga oid komponent so'zning tildan tashqari mazmuni va keyingi (tushunchaga oid-predmetga oid) ma'nosi sifatida albatta ishtirok etadi.

Logoepistema termini grekcha «logos» (til, nutq, ta'limot, ma'no) va «epistema» (birikma, bilimga, tushunishga olib keluvchi g'oyalar tizimi) leksemalaridan tuzilgan.

Logoepistema deganda turli darajadagi lingvomamlakatshunoslik zarur birliklar tushunilib, ularning mazmuni so'zda, so'z birikmasida, frazeologizmida yoki qanotli iboralarda ifoda etilishi mumkin. Ular matnda “o'tmishning sadosi” sifatida talqin qilinadi.

V.G.Kostomarov va N.D. Burvikova tomonidan ajratilgan logoepistemalar belgilari biz uchun muhim hisoblanadi. Bu belgilar logoepistemani birinchi navbatda lingvistik birlik sifatida ta'riflaydi:

- 1) «so'z ifodasiga ega, buning ustiga, faqat so'zda ifodalanib qolmay, ham so'z birikmasida, ham gapda, ham gapdan ortiq birlikda ifodalangan bo'lishi mumkin;
- 2) aniq tilga aloqadorligi bilan ajralib turadi;
- 3) uni keltirib chiqargan matnga yoki vaziyatga ko'rsatma bo'lishi mumkin;
- 4) kommunikatsiya jarayonida yangidan yaratilmaydi, ammo yangidan boshlanadi;
- 5) kommunikatsiya jarayonida anglab olishni saqlash doirasida shaklan o'zgarishi mumkin; bu holda u matnni tashkil etish kuchiga ega bo'ladi.

Logoepistemani madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ajratib turuvchi belgilar ham ancha muhimdir.

- 1) u madaniy xarakterga ega bo'lgan ba'zi bir bilim mazmundorligi bilan ajralib turadi;
- 2) u semiotik va timsoliy, xususiyatga ega, chunki u jamiyat tomonidan ishlatiladigan belgilar va timsollar elementlari tizimidir;
- 3) uning germeneytik xususiyati mavjud, chunki uni tushunish uchun boshqa matnlar bilan madaniyatning artefaktlari bilan o'zaro bog'lanish talab etiladi;

4)uning didaktik ahamiyati shundaki, uni “madaniyatning ichiga kirib ketish” ma'nosidagi ta'lim olish jarayonida egallash mumkin».

Yuqorida tahlil qilingan juda ko'p fikrlardan kelib chiqqan holda biz lingvokul'turema va logoepistema tushunchalarini quyidagicha ta'riflaymiz:

Lingvokul'turema - bu muayyan bir xalqning, millatning moddiy va ma'naviy madaniyatini, butun borlig'ini til va nutq birliklarida ifodalaydigan kompleks lisoniy-ma'daniy birlikdir.

Logoepistema – bu milliy-madaniy tarix hamda milliy madaniyat bilan uzviy aloqador bo'lgan muayyan bilim, tushunchaga ishora qiluvchi g'oyalar tizimini ifodalaydigan til birligidir. Har bir logoepistemada yuqorida qayd qilingan lingvistik madaniyatga oid belgilarning birikuvi kuzatiladi.

Demak, til madaniyat ko'zgusi sifatida xalqlarning o'zligini, mentalitetini milliy xarakterini, urf-odatlarini, qadriyatlarini ifodalovchi vosita hisoblanib, barcha milliy qadriyatlarni lingvokul'turema va logoepistema tushunchalari orqali yuzaga chiqaradi va bu har ikkala tushuncha-termin ham o'ziga tegishli ilmiy paradigmada qo'llanadi.

3. MADANIYATLARARO MULOQOT

Ma'lumki, til va madaniyat real borliq olamning ajralmas ob'yekti hisoblanadi. Biz til orqali madaniyatlararo muloqatni o'rgatamiz. Til va madaniyat tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'liq semalardir.

Madaniyatlararo muloqat nazariyasida turli xil madaniyat tushunchalarini ajratish mumkin: 1) madaniyat faolligi; 2) tasvirlash madaniyati; 3) funksional madaniyat; 4) baholash madaniyati; 5) ramziy madaniyat; 6) ma'naviy-ruhiy madaniyat; 7) dialogik nutq madaniyati va h.k.

Ta'kidlash lozimki, yuqorida sanab o'tilgan madaniyat turlari umumiiy konsept tushunchasini tashkil qiladi. Chunki konsept va kategoriya tushunchalari madaniyatlararo muloqotning asosiy fundamenti hisoblanadi. Lingvistikada olimlar tomonidan kategoriya va konsept tushunchalariga bo'lgan munosabat turlicha, chunki ushbu masala bo'yicha tilshunoslar aniq bir fikrga kelishi muammo bo'lib qolmoqda. Gap shundaki, konsept va kategoriya, konsept va ma'no, konsept va tushuncha, konsept va konseptual doira kabi tushunchalarning qo'llaninishini chegaralash va ularga aniqlik kiritish shu kunning dolzarb masalalarida biri bo'lib turibdi. Bu holat esa bizga bir oz o'ylashimizga, mantiqan fikrlashimizga to'g'ri keladi, chunki muhabbat, rang, baholash tushunchalari konseptmi yoki kategoriyami degan savolga javob berishga to'g'ri keladi.

Mazkur maqolamizning asosiy maqsadi, madaniyatlararo muloqat nazariyasida, birinchidan, kategoriya va konsept tushunchalarining orasidagi farqni ajratish, ikkinchidan, tilshunoslar tomonidan ushbu tushunchalarni bir xil deb qarashiga, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yib, sun'iy (soxta) ajratishlariga barham berish hisoblanadi.

Lingvistikada kategoriya va konseptlar orasidagi xususiyatlarni o'rganish alohida kasb etadi. Chunki bu ikki tushuncha inson ongida tafakkurida hosil bo'ladi va mantiqiy gap strukturasini tashkil qilib, turli xil ma'nolar majmuasini ifodalaydi. Kategoriyalar insonning aqliy faoliyatini umumlashtirib, ko'proq asosiy fikrlar majmuasini anglatrsa, konseptlar turli xil ma'nolarni birlashtiradi.

Hamma konseptlar tilda verbalizatsiya orqali yuzaga kelsa, unda kategoriyalar tilda aniq belgilangan vositalar bilan ifodalanishi mustahkamlangan bo'lmaydi,

Konsept va kategoriyalar orasidagi o'xshashlik va noo'xshashlik semantik xususiyatlar quyidagilar.

1. Kategoriya real ob'yektiv dunyoni lisoniy birliklar yordamida ifodalab kelsa, bu ob'yektlar haqidagi tushunchani esa konsept anglatadi.

2. Konsept va kategoriyalarning bir xil til bo'lakli til xodisalar bilan iyerarxik munosabatga kirishish yoki kirisha olmaslik xususiyatlariga shubha bilan qarama-qarash qo'yish kuzatiladi. Ta'kidlash lozimki, konseptlar bir-biridan farq qilsa, unda kategoriyalar ularni turli xil holatda ma'lum bir madaniy o'zarobog'liqlik doirasiga birlashtiradi. Shuningdek konseptlar iyerarxiyasi (konseptlar, mikrokonseptlar, superkonseptlar) va kategoriyalar iyerarxiyasi haqida (kategoriyalar, superkategoriyalar, subkategoriyalar) gapirish mumkin.

3. Konseptlar kategoriyaga nisbatan tilga yaqinroq turadi, chunki ular til ma'nolarini o'zida aks ettiradi, kategoriyalar esa ob'yekt dunyo mohiyatini aks ettiradi. Inson ongida ob'yektiv olamning mohiyati aks etar ekan, tilda bu holat turli xil ma'nolar yordamida o'z ifodasini topadi.

4. Konsept va kategoriya turli xil til xodisasi. Konsept tafakkur doirasiga kirib, bilimlar majmuasini, ya'ni inson ongidagi mental leksikonni, koseptual sistemani va til faoliyatini ifodalaydi. Kategoriya ham tafakkur doirasiga kiradi, ammo u til bo'lagini aks ettirmasdan, balki u guruhlarini va til ob'yektlar majmuasini bildiradi.

6. Konsept va kategoriya o'zaro o'xshash tushunchalarni anglatadi.

7. Konsept va kategoriya o'zaro kesishadigan tushunchalar. Konsept va kategoriyalar orasidagi farq absolyut emas, faqat ular mental xodisalar (strukturalar).

8. Kategoriya ob'yektiv olamni ifodalasa, konsept esa uning mohiyatni bildiradi. Ikkala tushuncha ham umumiy funksiyaga ega. Ammo konsept turli xil ob'yektlarni(muhabbat, do'stlik, qushlar, gullar va h.k.) birlashtirsa, kategoriya bir xil kategoriyalarni umumlashtiradi. Masalan, Mukofotlash(taqdirlash va h.k.). Bu kategoriya turli xil belgilarni aks ettiradi va kategoriya ob'yektini xarakterlaydi. Har bir sanab o'tilgan kategoriya bir xil ob'yektini o'z ichiga oladi, masalan, Mukofatlash kategoriyasi o'z ichiga quyidagi

ob'yektlarni kiritadi: to'lash (plata), sovrin (priz), mukofot(premiya), qalam haqi (gonorar), bepul(grant), sovg'a(podarok) va h.k.

Insonning hissiy tuyg'usini, muhabbatini ham konsept, ham kategoriya deb olish mumkin. "Muhabbat" konsepti o'z ichiga quyidagi ob'yektlarni qamrab oladi: romantik muhabbat, ota-onaga muhabbat, musiqaga muhabbat, ona vatanga muhabbat va h.k.

Romantik muhabbat o'z o'rnida subkategoriyani tashkil qilib, u mumkin bo'lgan hamma ob'yektlarni xarakterlab kelishni talab qiladi. Masalan, erkak kishining ayolga muhabbati yoki ayol kishining erkak kishiga muhabbati, birinchi muhabbat, javobsiz muhabbat, oshiqlik, sof muhabbat, ehtirosli muhabbat, bir-birini sevish.

Sanab o'tilgan ob'yektlar hammasi yagona muhabbat konseptini tashkil etadi.

Hamma ushbu ob'yektlar umumiy kategoriyani tashkil qiladi va ular o'z o'rnida real hayotdan olingan misollar buni aniq aks ettiradi. Masalan, Romeo Juletta, Layli va Majnun, Farhod va Shirin va h.k.

Ta'kidlash lozimki, insonning hissiy tuyg'usini, muhabbatini ham konsept, ham kategoriya deb olish mumkin. "Muhabbat" kategoriyasi o'z ichiga quyidagi ob'yektlarni qamrab oladi: romantik muhabbat, ota-onaga muhabbat, musiqaga muhabbat, ona vatanga muhabbat va h.k.

Mazkur konseptning ikki katta asosiy ko'rinishini ajratish lozim: 1) Biror kimga bo'lgan muhabbat, 2) Biror narsaga bo'lgan muhabbat.

Bu ikki asosiy ko'rinish aniq simvollarda o'z aksini namoyish qiladi.

1. Biror kimga bo'lgan muhabbat o'z ichiga quyidagi kognitiv semalarni oladi: tirik jonzod - muhabbati, muhabbat- tirik jonzotning qalbi-yuragi: Mas: «yaxshi ko'rish, o'z qalbini-yuragini yo'qotish» avoir le coeur pris); «biror kimni sevib qolib, uning qalbini maftun qilish» (charmer le coeur); «yaxshi ko'rish, muhabbat tuyg'usini o'z qalbida olib yurish» (porter dans son coeur).

2. Biror konkret narsani sevish o'z ichiga quyidagi semalarni qamrab oladi: muhabbat-alanga, muhabbat- predmet, muhabbat-urush, muhabbat-metal va boshq.

Biror mavhum narsaga muhabbat:

muhabbat-baho: «muhabbat insonning ichki tana a'zolaridek aziz - lyubov tak je syenna, kak kishki» (frans. aimer qn somme ses (petits) boyaux); «muhabbat inson ko'zidek

aziz - lyubov tak je syenna, kak glaza» (frans. aimer qn somnye (plus que) ses yeux; aimer qn comme les yeux de la tete), muhabbat-qudratli kuch: «lyubov zastavlyayet tansevat daje osla - muhabbat eshakni ham o'ynashga majbur qiladi - lyubov zastavlyayet tansevat daje osla» (l'amour apprend aux anes à danser); «muhabbat qiyinchiliklarni bartaraf etadi - lyubov preodolevayet prepyatstviya - lyubov preodolevayet prepyatstviya» (frans. l'amour rapproche les distances): «muhabbat har qanday yoshni o'ziga maftun qiladi - lyubvi vse vozrasty pokorny» (l'amour est de tous les ages);

muhabbat-biror narsaga majbur qiladi: «meni yaxshi ko'rsang, itimni ham yaxshi ko'r - lyubish menya, lyubi moyu sobaku» (qui m'aime, aime mon chien); «kim meni yaxshi ko'rsa, orqadan yursin - kto menya lyubit, sleduyet za mnoy» (qui m'aime me suit);

muhabbat-zaiflik, kasallik, jarohat: «muhabbat tufayli kasal bo'lmoq - быт болным lyubovyu», «muhabbat-kasalligi-lyubovnaya bolezni» «biror kimga nisbatan o'zining zaifligini his qilmoq - испытыват слабость к кому-то» (frans. Avoir un faible pour qn); tomber amoureux;

muhabbat-biror narsani unutmaslik: «eski muhabbat zanglamaydi - staraya lyubov ne rjaveyet» (vieille amitié ne craint pas rouille); «kimki sevsa, u unutmaydi - kto lyubit, tot ne zabывayet» (qui bien aime tard oublie);

muhabbat-omadlilik: «karta o'yinidan omadi kelmoq - muhabbatdan omadi kelmaslik - vezet v kartax - ne vezet v lyubvi» (heureux au jeu, malheureux en amour);

muhabbat-kambag'allik-nocharlik: «muhabbat va nochorlik bir-biri bilan yaxshi uyg'unlashmaydi - lyubov i bednost ploxo sochetayutsya» (l'amour et la pauvreté font ensemble mauvais ménage);

muhabbat-ayriliq: «ayriliq muhabbatni mustahkamlaydi - razluka ukreplyayet lyubovnoye chuvstvo», «ayriliq muhabbatni poymal qiladi - razluka vredit lyubvi» (l'absence est l'ennemi de l'amour);

muhabbat-go'zallik: «xunuk muhabbat bo'lmaydi - ne бывayet nekrasivoy lyubvi» (il n'y a point de laides amours - il n'y a point de belles prisons ni de laides amours);

muhabbat-telbalik yoki ahmoqlik: etre fou de; etre toqué de qn).

Ta'kidlash lozimki, Muhabbat konseptiga o'zaro mazmun jihatidan yaqin bo'lgan boshqa konseptlardan bir-biri bilan kesishadigan markaziy nuqtani topish zarur. Masalan:

“Muhabbat” konseptini markaz deb olsak, u sub’yektning ob’yektga bo‘lgan kuchli muhabbat tuyg‘usi bo‘lib, mazkur konsept quyidagi konseptlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lib, bitta nuqtada kesishishi mumkin: “istak-tilak”, “nafs-hirs”, “qiziqish”, “hurmat”, “zavqlanish”, “do‘stlik”, “maftun bo‘lish”, “taassurot” kabi.

